

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

____ S.Abdullayev

“___” _____ 2018-y

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi IV kurs 403-guruh
talabasi Ochilova Zuhro Yunus qizining “**Badiiy adabiyotda xasis obrazii**”
mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ f.f.d. U.Jo‘raqulov,

Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy
jarayon kafedrasи dotsenti

Taqrizchilar:

_____ Suvon Meli
filologiya fanlari nomzodi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Adabiyot nazariyasi va zamonaviy

adabiy jarayon kafedrasи mudiri,

f.f.d. prof B. Karimov

“___” _____ 2018-y

TOSHKENT-2018

**Malakaviy ishga berilgan “Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon”
kafedrasi.**

XULOSASI

Talaba Ochilova Zuhro Yunus qizining f.f.d U.Jo‘raqulov rahbarligi ostida “**Badiiy adabiyotda xasis obrazi**” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ko‘rib chiqildi va bu ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Oliy o‘quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo‘yilgan talablarga to‘liq javob beradi.

Davlat Attestatsion Komissiyasida ushbu ish himoyaga kiritilishi mumkin.

Asos: “Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon” kafedrasining 2018 yil

___-son bayonnomasi

Kafedra mudiri:

B.Karimov

«___» _____ 2018 yil

B I T I R U V M A L A K A V I Y I S H I

MAVZU: “Badiiy adabiyotda xasis obrazi”

DAK qarori:

**5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) 403-guruh talabasi Ochilova Zuhro
Yunus qizining “Badiiy adabiyotda xasis obrazi”**

Bitiruv malakaviy ishi «_____» ga baholansin.

«_____» _____ 2018 -yil

DAK raisi:

N.Mahmudov

DAK kotibi:

G. Komilova

Bitiruv malakaviy ishlarni baholashning umumiy mezonlari

1	BMIning umumiy tavsifi talaba tomonidan talab darajasida yoritilganligi;	10
2	BMINi yozishda talabaning masalaga mustaqil yondasha olganligi va turli ilmiy-nazariy fikrlarga shaxsiy munosabatini bildira olganligi	10
3	BMDan chiqarilgan xulosalarning nazariy-amaliy ahamiyati	10
4	BMI mavzusidagi ilmiy yangiliklar	10
5	BMI mavzusining amaliyot bilan aloqasi va bog'liqligi	10
6	Ishning BMIlarga qo'yiladigan talablarga moslik darajasi	30
7	BMI himoyasida talabaning masalani to'g'ri va aniq yoritib bera olish mahorati, ilmiy nutq madaniyati, axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanganlik darajasi	20

JAMI:

100 ball

Quyidagi hollarda talabaning BMI 0 - 54% ball bilan baholanishi mumkin:

- talaba mavzuning mohiyati va ahamiyati, xususiyatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lmasligi;
- BMINi oldiga qo'yilgan talablar darajasida bajara olmasa, ko'chirmakashlik bilan bajarilgan

bo‘lsa;

- juda ko‘p imlo xatolarga yo‘l qo‘ysa;.

-bitiruv malakaviy ishini himoya qila olmasa, ya’ni BMI himoyasida
mavzuni bayon qilib bera olmasa, ish haqida o‘z tushunchasiga ega
bo‘lmasa.

MUNDARIJA

KIRISH.....	
1-BOB.XASIS OBRAZI VA UNING TARIXIY-BADIIY OMILLARI.....	
1.1. Xasis obrazining shakllanishi va tadriji masalasi.....	
1.2. Hajv orqali xasis obrazining ijtimoiy- psixologik, badiiy- estetik jihatdan o‘ziga xosligini namoyon etish.....	
2-BOB.G‘ARB ADABIYOTIDA XASIS OBRAZI KO‘RINISHLARI.....	
2.1. Plavtning “Xumcha” asarida xasis obrazi talqini.....	
2.2. Uyg‘onish va keyingi davr. G‘arb adabiyotida xasis obrazi tadriji masalasi.....	
3-BOB. BADIY ADABIYOTDA XASIS OBRAZINING FOLKLOR VA MUMTOZ ADABIYOTDAGI KO‘RINISHLARI	
3.1. 20-yillar o‘zbek nasrida xasis obrazining tarixiy shakllanishi va taraqqiyoti masalasi	
3.2. 60-80-yillar nasrida xasis obrazining o‘ziga xosligi.....	
XULOSA.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha sohalari qatori xalq ma’naviyatining ko‘zgusi bo‘lmish adabiyot , xususan, adabiyotshunoslik rivoji ham davlatimiz,jamiyatimizning doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda . Adabiyot har vaqtda bir-biri bilan dini, millati, tili boshqa bo‘lgan insonlar uchun tarjimon bo‘lib kelgan. Adabiyot uchun asosiy tasvir vositasi inson bo‘lib, adabiyot uni turli rakurslarda tasvirlaydi. Inson hayoti, o‘y-xayollari, xarakteri, ruhiyati adabiyot o‘zagi sanaladi. Vaqt silsilsasi inson tafakkuriga ta’sir qilganidek, uning mahsuli bo‘lgan adabiyotda ham ulkan evrilibshlar hosil qiladi. Demakki, adabiyot insonning butun tafakkuri va ma’naviyatiga ta’sir qila oladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek “Barchamizga a’yonki, XXI asr intellektual salohiyat , tafakkur va ma’naviyat asri sifatida insoniyat oldida yangi –yangi ufqlar ochishi bilan birga, biz ilgari ko‘rmagan, duch kelmagan keskin muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatning ertangi kunini o‘ylab odamlarni ezgulikka, insof –diyonat, mehr – muhabbat va bag‘rikenglikka da’vat etishga qaratilgan haroratli so‘zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”,¹-deb ta’kidlaydi i“Adabiyotga e’tibor- ma’naviyatga , kelajakka e’tibor “ asarida.

Ijod harakatdagi jarayondir. Uning amaliyotdagi ifodasida ham ushbu qonun o‘z kuchini ko‘rsatadi. U ko‘pchilik norma sifatida qabul qilgan ifoda tarzi, fikr yo‘sining zid o‘laroq doim mavjud bo‘lgan va qayta –qayta vujudga kelaveradi. Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning asosida inson obrazi turadi, chunki borliqning o‘zida inson shu xilda mavqe egallaydi. Shunday ekan, borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning bu yo‘ldagi asosiy vositasi inson obrazi bo‘lishi ham tabiiydir. Inson obrazi esa turli xarakterlar majmuasidan tashkil topadi. Xasislik faqatgina insongagina xos illat. Bu xarakter insonni adabiyotga daxldor qildi. Inson hayotida xasislik azaliy jazo.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. –T .: Ma’naviyat, 2008

Bu haqda eng go'zal va dastlabki fikrni Budda aytib o'tgan edi: "Inson hayoti azob—uqubatlardan iboratdir. Biroq doimo to'g'ri so'zlab, ezgulikka intilish, o'zgalar haqiga xiyonat qilmaslik, g'azab va hasadni yengish orqali uni yengillatish mumkin. Shuningdek, inson behuda yugur —yugurlardan , mol —dunyo orttirish havasi va haddan ziyoda huzur —halovat istagidan ozod bo'lmog'i lozim. Ana shunda har bir boy va kambag'al, shoh va qul, ruhoniy va oddiy kimsalar dunyoga qayta —qayta kelish azobidan xalos bo'ladilar"².

E'tibor berib qaralsa, Budda hayotni emas, ballki insonning o'z qiyofasini saqlab qolish yo'lida nafs istaklaridan voz kechib yashashini mashaqqat deb bilmoqda. Nafs istaklari esa insonda turli illatlarni, jumladan, xasislik illatini ham yuzaga keltiradi. Adabiyot xasislik illati bilan "og'riganlarni" obraz qilib olar ekan, asosiy e'tiborni xasis obrazidagi qahramonlar ustidan kulishga emas, ayni shu illatdan ehtiyot bo'lishga chaqiradi. Badiiy adabiyotda xasis obrazini har qaysi ijodkor o'z uslubidan kelib chiqib tasvirlasa ham, ularning barchasida ushbu nafsoniy illatdan ogohlilik talabi birinchi darajali vazifa sifatida turadi.

Badiiy adabiyotda xasis obrazi borasida olib borilayotgan ushbu bitiruv malakaviy ishi xasis obrazining o'ziga xos namunalari yaratilgani hamda yaratilayotganini, bu o'lmas namunalarning zamon va makon chegaralaridan bemalol chiqib keta olishini ko'rsatib berishni o'z zimmasiga oladi.

Mavzuni ochib berish jarayonida quyidagi masalalarni dolzarb deb hisobladik:

Birinchidan,adabiyotshunoslikda yaratilayotgan badiiy asarlarda kompozitsiya, syujet, xarakter va detallarning qo'llanishi borasida xilma —xillik kuzatilmoxda, bu jarayonni baholash va tahlil qilishda adabiy ta'sir nuqtayi nazaridan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi;

Ikkinchidan, xasis obrazining adabiyotshunosligejimizda hali yetarli darajada o'rganilmagan, bu esa ushbu obraz genezisini aniqlashda chalkashliklarga sabab bo'lmoqda;

² Miloddan avvalgi 556-476- yillarda yashab o'tgan hindistonlik faylasuf. U buddaviylik dinining asoschisi. Inson ruhiy kamolotining yo'llarini ishlab chiqqan. U buddaviylik dinining muqaddas kitobi sanalgan "Tripitaka" asarining muallifi. Budda hayotni inson kamolotining bir necha vaqtlik shans deb biladi.

Uchinchidan, xasis obrazini yaratish an'analari jahon adabiyotida va o'zbek adabiyotining bir qancha vakillarida, jumladan Plavt, Molyer, Onore de Balzak; Muqimiyy, A.Qodiriy, S.Ayniy, E.Vohidov asarlarida ko'zga tashlanadi, shu bois ham ushbu ijodkorlarning ijod namunalarini solishtirib o'rganish ishimizning dolzarb nuqtalaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Badiiy adabiyotda xasis obrazi dunyo nigohini o'ziga qarata olgan va deyarli barcha adabiy jarayonlarga yangicha xarakter sifatida kirib borgan badiiyatdir. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda xasis obrazini yaratgan jahon adabiyoti vakillari Plavt, Molyer, Onore de Balzak asarlarini o'zbek adiblari, jumladan, A. Qodiriy, S.Ayniy, E.Vohidov asarlari bilan solishtirib, ushbu obrazning genezisini, rivojlanish bosqichlarini aniqlab, adabiyotdagi o'rnni tadqiq va tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Tadqiqotning vazifalari:

- Xasis obrazining kelib –chiqishi, genezisini o'rganish;
- Adabiy ta'sirning nazariy tamoyillari va taraqqiyot darajalarini belgilash;
- Milliy adabiyotimizga jahon adaabiyoti ta'sirini o'rganish;
- Ushbu obrazning asarlardagi o'rni, g'oyaviy jihatlarini tadqiq qilish;
- Asarlardagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar ifodasi tadrijiga oid yangiliklarni kuzatish va tahlil qilish va boshqalar.

Tadqiqotning obyekti sifatida Rim yozuvchisi Plavtning "Xumcha" (Ko'milgan xazina) komediyasi, Molyerning "Xasis" komediyasi, Onore de Balzakning "Gobsek" qissasi, Muqimiyning "To'yi Iqonbachcha" hajviyasi, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani, Sadriddin Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" qissasi, Erkin Vohidovning "Oltin devor" dramasidan foydalanildi. Zero,

adabiyot insonshunoslik ekan, ushbu asarlarda inson va uning xarakter xususiyatlari yoritilgani bejiz emas. Ammo quyidagi asarlarning badiiyatini ko‘rsatish uchun, avvalo, badiiylikni anglatuvchi asarlarga ehtiyoj sezamiz. Bunday paytda Aristotel, Belinskiy, Fitrat, Izzat Sulton singari adabiy –badiiy nazariyotchilarning fikrlariga suyandik.

Tadqiqotning predmeti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida xasis obrazining o‘ziga xos jihatlari, adabiy ta’sirning ushbu obrazda aks etishi, ayni shu obraz xususiyatlarini ochishga qaratilgan asarlarning adabiyotda tutgan o‘rni, asoslari va sabablariga diqqat qaratildi. Misol uchun Onore de Balzak “Gobsek” qissasida muallif o‘z oldiga qanday maqsad qo‘ygani borasidagi turli –tuman qarashlar o‘rganilib umumlashtirishga harakat qilindi. Xasis odam psixologiyasi asosiga qurilgan qissa nima haqda –undagi ushbu obrazning bosh qahramon sifatida olinishi tasodifmi yoki bu inson atalmish yaratiqning ochilmagan ming bir qirrasidan birini izlash yo‘lidagi ijodkorning shaxsiy kashfiyotimi?

Uslubining o‘ziga xos soddaligi, xasis obrazining dastlabki yaratilgan yorqin namunasi sifatida jahon adabiyotining eng sara asarlari qatorida turadigan Plavtning “Xumcha” komediyasini o‘ziga xos mohiyat kasb etadi. Malakaviy ishda ushbu asarning mana shu jihatlarining adabiyot olamiga ko‘rsatgan ta’siri tekshirildi.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi Solih maxdum, Sadriddin Ayniyning “Qori Ishkamba” qissasidagi Qori Ishkamba, Erkin Vohidovning “Oltin devor” dramasidagi Mo‘min chol obrazlari o‘zbek nasrida yaratilgan xasis obrazining o‘lmas namunasi ekanligi bilan ajralib turadi.

Qisqacha adabiyotlar tavsifi. Bizgacha xasis obrazi maxsus o‘rganilmagan bo‘lsada, Muqimiy, Abdulla Qodiri, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Sadriddin Ayniy ijodi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda qisman bo‘lsada o‘rganilgan. Juhon adabiyotida esa V.Baxtin ushbu mavzu yuzasidan chuqur izlanishlar olib borgan. Hamda uning izlanishlari chuqur tahliliy, falsafiy mohiyatga ega ekanligi bilan alohida e’tiborga sazovor.

Bizning bitiruv malakaviy ishimiz bu mavzu o‘zbek adabiyotida maxsus tarzda o‘rganilmagani uchun yangilik sanaladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- a) Xasis obrazi masalasi o‘zbek adabiyotida juda kam o‘rganilgan;
- b) ahlilga tortilgan asarlardagi yondashuv avvalgi yondashuvlardan farq qiladi;
- c) Tahlil va talqin jarayonida qiyosiy metodga amal qilishga harakat qilindi, ya’ni asarlarni o‘zaro solishtirishga, tanqidchilar va yozuvchilarning asarlarga bildirgan fikrlariga, obrazlar mohiyatiga diqqat qaratildi.

Plavt, Molyer, Onore de Balzak, Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy, Erkin Vohidov ijodi bir qancha ijodkorlar tomonidan o‘rganilganiga qaramay, Plavt yaratgan xasis obrazi o‘zbek adabiyotida yaratilgan xasis obrazlari bilan alohida solishtirilgan emas, holbuki Plavtning xasisi o‘zbek adabiyotidagi xasislarga ta’sir o‘tkazganligi malakaviy bitiruv ishimizning yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning tarkibi: Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

I BOB XASIS OBRAZI VA UNING TARIXIY- BADIY OMILLARI

1.1. XASIS OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TADRIJIY

BOSQICHLARI

Adabiyotning asosini inson –uning xarakteri, dunyosi, ruhiyati, o‘y- fikrlari, orzulari tashkil qiladi. Inson esa hali javobi topilmagan jumboqqa o‘xshaydi. Uni anglash , tushunish, his qilish birmuncha qiyin. Insoniyat paydo bo‘libdiki, har bir shaxs o‘ziga xos mohiyat kasb etadi. Insonshunoslikdan iborat badiiy adabiyot asarlarida biz odamlarning turli darajada tafsilot va izchillik bilan tasvirlanganiga guvoh bo‘lamiz. Adabiyotning naqadar qudratli kuchga ega ekanligini ustoz yozuvchilardan Abdulla Qahhor aytib o‘tgandi. Uning “Adabiyot atomdan kuchli, ammo uning kuchini o‘tin yorishga sarflash kerak emas” degan haqiqatni yelkasida ko‘tarib turuvchi gapi, shak –shubha yo‘qli, adabiyot uchun berilgan eng yaxshi ta’riflaridan biri bo‘lib qoladi. Rivojlanishlar davriga kirgan bir paytda ham adabiyot uchun inson zarracha o‘zgargani yo‘q. Adabiyot hamon insonni tadqiq qilishda davom etmoqda. Badiiy asar oxiri yo‘q tadqiqot maydonidir. Uning o‘zga tadqiqot maydonlaridan farqi shundaki, badiiyat o‘z bag’rida betakror go‘zallikni yashirib turgan bo‘ladi. Ayni shu go‘zallikni anglatish uchun ijodkor turli –tuman insonlarni obraz qilib oladi.

Adabiyotda turli xarakterdagи odamlar tasvirlanadi.Hayot mohiyatini o‘zaro qarama–qarshiliklar –tun va kun, oq va qora, yaxshi va yomon –tashkil qilganidek, adabiyot mohiyati ham doimo qarama –qarshi kuchlar asosida quriladi. Yozuvchi asarni yanada ishonarli,ta’sirchan chiqishi uchun albatta turli xarakterdagи obrazlarni asos qilib oladi.

Adabiyot har bir muayyan tarixiy davr va sharoitda yashagan insonni o‘rganadi, uning ruhiy holatlariga kiradi, ichki dunyosi haqida aniq va ravshan ma’lumot

beradi. Badiiy adabiyot –badiiy tafakkur mahsulidir. Bu vazifani adabiyot obraz yaratish yo‘li bilan bajaradi.

Obraz –insonning tasviri bo‘lib, u hayotdagi odamning asl nusxasini emas, balki yozuvchining ma’lum davr va sharoitda yashovchi insonlar haqidagi tasavvurining ifodasidir.Badiiy adabiyotda tasvir etilgan barcha inson obrazi umumlashtiruvchi kuchga ega. Unda ma’lum davr va muhit kishisining xarakterli xususiyatlari mujassamlashgan bo‘ladi.Shu sababli ham obrazlilik –badiiy adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biridir.

“Obraz atamasi haqidagi ilk fikrlarni mashhur yunon faylasufi Aristotelning estetik qarashlarida uchratish mumkin. Biroq Aristotel “Poeziya san’ati haqida” nomli asarida “obraz” atamasi o‘rnida “mimesis” iborasini ishlatgan. “Mimesis” – taqlid demakdir. Binobarin, olim mimesis (obraz) tur mushgtaqliddan yaratiladi deb hisoblagan. “Obraz” atamasi birinchi marta mashhur nemis faylasufi Gegelning estetikaga oid asarlarida ishlatilgan. Gegel o‘z estetik qarashlarida san’at haqida fikr yuritar ekan,“san’at –obrazlar orqali fikrlash” demakdir,deb ta’kidlagan.”³

“Obraz” nima degan savolga L.I.Timofeyev “Obraz –to`qima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma ayni choqda, konkret manzarasidir” deya javob bergen edi. Ushbu ta’rifga qo‘sishimcha qilib aytish mumkinki, badiiy obraz yozuvchi hayolotidan o‘sib chiqqan, ammo unga bo‘ysunmaydigan, mustaqil harakat qila olish imkoniga ega bo‘lgan, o‘z harakatlariga subyekt bo‘la oladigan badiiy ishlanmadir. Rus adabiyotshunosining ta’rifini D.Quronov yanada aniqlashtiradi:

“Individuallashtirilgan umumlashma, konkretlilik, ratsional va emotsiyal birlik sifatida metaforiklik, assotsiativlik, notugalllik”⁴ deya obrazning konkret qiyofasini chizadi.

Ma’lumki, san’at va adabiyot hayot obrazlar vositasida aks ettiriladi. San’atkor hayotni kuzatadi, kuzatgan voqealarini tafakkuridan o‘tkazadi, ularni qayta ishlab

³ Т.Бобоев.Адабиётшунослик асослари.Т.: Ўзбекистон, 2002

⁴ Mahmudov Y. Hikoya badiiyati. –T.:Turon zamin ziyo,2017

yana jonli hayot shaklida yaratadi. Hayot voqealarini qayta tiklashda inson obrazi muhim ahamiyatga ega. Inson turli xarakterga ega. Xarakter – obrazning yadrosi. Xarakter, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o‘z individual xatti – harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo‘ladigan insonning aniq tasviri. Umuman aytganda, qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmui xarakter deb yuritiladi. Badiiy asarda xarakterni belgilovchi 2 omil muhim sanaladi:

1. Shaxs iroda yo‘nalishini ko‘rsatuvchi omillar
2. Xulq –atvorini belgilaydigan individual ruhiy belgilar: mardlik, qo‘rqoqlik, mehnatsevarlik, dangasalik, saxiylik, xasislik kabilar.

“Asarda mukammal tasvirlangan obrazlargina xarakter darajasiga ko‘tarila oladi. Xarakter –bu aniq iroda yo‘nalishi va o‘zining individual xususiyatlari bilan boshqalardan keskin ajralib turadigan obraz”.⁵

Adabiyot hayotni ikki yo‘l bilan tadqiq qiladi: biri –tasdiqlash, ikkinchisi – inkor etish. Shunga ko‘ra obrazlar ham bir –biridan farq qiladi. Hayotning yozuvchi idealiga muvofiq tomonlarini tasdiqlash uchun asarga kiritilgan obrazlar –ijobiy obrazlar deyilsa, hayotning biror tomonini inkor qilish uchun xizmat qiladigan obrazlar –salbiy obrazlardir. Bu o‘rinda L.N.Tolstoyning shunday gaplari bor:

“Odamlar daryodek gap: hammaning suvi bir xil, hamma joyda o‘sha suv, lekin daryo goh keng bo‘ladi, goh tor, goh tez oqadi, goh sekin, suvi goh tiniq bo‘ladi, goh loyqa, goh sovuq, goh iliq bo‘ladi. Odamlar ham shunday.”⁶

Sirdan qaralganda, bir odam boshqa bir odamga o‘xshab ham ketishi mumkin, ammo zehn solib qaralsa, sira –sira o‘xshamaydi –har bir odam o‘ziga xos dunyodir. Obraz –badiiy kashfiyot –u bir martagina kashf etiladi.

Badiiy adabiyotda qaysidir obraz donolik, qaysi biridir nodonlik timsoli, yana birovi saxiylik, boshqasi esa xasislik timsoli sifatida adabiyotga kirib keladi. Hamda ular bir –biriga zid tarzda harakat qiladi. Shuningdek, yaratilayotgan har bir

⁵Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. Т.: Ўзадабийнашр, 1962

⁶Т.Бобоев.Адабиётшунослик асослари.Т.: Ўзбекистон, 2002

obraz o‘zi bilan birga konfliktik asosda harakatlanuvchi boshqa bir obrazni talab qiladi. Zero, hayotning mohiyati ham shunday. Saxyilar bormi, albatta xasislar ham mavjud. Adabiyot birgina shaxsni emas, butun insoniyatni, uning orzularini, ruhiyatini, ichki olamidagi tala –to‘plarni, jamiyat bilan munosabatini, jamiyatdagi o‘rnini bor bo‘yicha ko‘rsata olsagina haqiqiy adabiyot bo‘ladi. Har bir obrazning o‘z tarixi, shakllanish bosqichlari va asosi bo‘ladi. Jumladan, xasis xarakteriga ega obrazlarning ham. Insonlar hayoti davomida dunyoda to‘kin –sochin va hech bir jihatdan muhtojlik sezmay yashashga intiladilar. Bu harakatlari sabab ko‘proq boylik yig‘ishga, mol –dunyo orttirishga harakat qiladilar. Biroq aksar holatlarda insonlar o‘zlari to‘plagan boylikka shunchalik bog‘lanib qoladilarki, bu xasislikning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Ular xasisligini berkitish uchun ajoyib vaj ham topa oladilar. Xasis men xasislik qilmayapman, o‘z molimni himoya qilib tejamkorlik qilyapman deb vaj korson qiladi. Xasislik, baxillik, ochko‘zlik va badnafslik eng tuban ma’naviy illatlardan hisoblanadi. Inson o‘zini taftish qilib yurmasa, saxiylikka, olijanoblikka odatlantirmasa bunday illatlarga mag‘lub bo‘lishi hech gapmas.

Xasislik illat. Chunki u xuddi hasad kabi insonni ich –ichidan yemiradi. Qur’oni Karimda ham xasislik keskin qoralanadi:

“Kimki, nafsining baxilligidan saqlansa, ana o‘shalar najot topuvchi kimsalardir” (Hashr surasi: 9-oyat)

Oyati karima benihoya chuqur ma’noga ega. Agar biroz fikr yuritsak, xasislik nafsda mavjudligi, nafslar bu illatga moyillagini tushunamiz. Shu bilan birga ushbu illatdan qutulish, saqlanish zarurligini anglaymiz.

Alloh taolo kalomi sharifida xasislik va badnafslikdan qaytarib shunday deydi:

“Baxillik qilib qo’lingizni bo‘yningizga bog‘lab ham olmang. Isrofgarchilik qilish bilan uni butunlay yoyib ham yubormang! Aks holda, malomat va mahrumlikda o‘tirib qolursiz.” (Isro surasi, 29-30 oyatlar)

Ammo shunisi qiziqliki, ushbu illat butun insoniyatda mavjud. Faqat kimdadir xasislik illati, boshqa birovlardagi xasislikka nisbatan yuqoriroq darajada bo‘ladi. Inson o‘zini nazorat qilish orqaligina ushbu illatdan xalos bo‘lishi mumkin.

Nazorat qilolmagan, nafsga qul bo‘lgan kimsalar esa o‘tkir qalam tug‘iga duchor bo‘ladilar.

Barcha obrazlar singari Xasis obrazining genezisi ham dastlab xalqlar adabiyotida folklor tarzida vujudga kelgan. Dastlab, xalqni talagan, birovga hech narsasini ravo ko‘rmaydigan, o‘z soyasidan ham qo‘rqib boyligidan ajrab qolmaslik uchun hatto jonidan voz kechishga tayyor bo‘lib yashovchi amaldorlarni hajv qilishgan. Ularning illati –xasisligi, ochko‘zligi, qo‘rqaqligi ustidan xalq ichidan chiqqan biror obraz vositasida kulishgan yoki shunday obrazni o‘zlari to‘qib chiqarishgan. Masalan, ingliz adabiyotida xalqni talab, uning mehnati evaziga boyisada, o‘sha boyliklarni xasisligi sababli berkitib yuradiganlarning dodini berib, xasisligi ustidan kuladigan qahramon sifatida Robin Gud vujudga kelgan. O‘zbek adabiyotida esa xasis insonlar ustidan kulish vazifasini Nasriddin Afandi “o‘z bo‘yniga olgan”.

“Afandi mardikorchilik qilar edi, bir xasis odam uni yollamoqchi bo‘lib, baholashdi.

–Yarim tanga pul, o‘n osha mosh beraman, -dedi u.

Afandi ko‘ndi. Kechqurun ishdan keyin yarim tanga pulni olib yoniga soldi, xasis olib chiqqan o‘n osham oshni uch osham qildi –yu:

–Qolgan yetti oshamiga qachon kelay? –dedi .⁷

Ushbu qahramonlarning xasis, baxil odamlarni qilgan hajvlari og‘izdan og‘izga o‘tib, yozma adabiyot vujudga kelgach, unga ko‘chgan .

Xasislik insoniyat yaratilganidan buyon illat sifatida qoralanadi. Chunki bu xarakterdagi odam hayotda faqat bir narsani –faqat va faqat boylik orttirishni ko‘zlaydi. Lekin bilmaydiki, boylik baxt emas, bevafo va o‘tkinchi ne’matdir. Uning ishi birrovga boshga qo‘nib, keyin uchib ketish. Dunyoning teng yarmini hamda undagi boyliklarni qo‘lga kiritgan Iskandar Zulqarnayndan tortib hamma bu manzildan ketmoqda. Ammo ba’zi insonlarning ustidan kulib, qarab turgan boylik, mol –dunyo bir tola sochi ham o‘zgarmagan yosh qizdek hali –hamon

⁷ O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi fanidan ma’ruzalar matni. Nukus, 2011

bardam,hali-hamon o‘z jilvasi bilan insonlarni domiga tortishdan charchamaydi. Xuddi atoqli shoirimiz Vafo Fayzulla aytganidek:

Oq ko‘ylaklar kiygan tog’lar bor hamon,
Hilpirar yelkasida beg’ubor lola!
Turnalar olislardan qaytishdi omon,
Xayrlashuv chog‘i ko’z ochgan nola...⁸

Xasis obrazi boshqa obrazlar singari xalq ichidan olinib, yana xalq ichiga o‘tkir kinoyaga, satirik kulguga boyitilib qaytarilgan obraz sanaladi. Ushbu obraz o‘zining realistik ruhi bilan o‘zgacha joziba kasb etadi. U qaysi davrda, qaysi yozuvchi tomonidan yaratilganidan qat’iy nazar, ayni o‘sha hayotni va undagi insonlarning holatini ochib berishga xizmat qilgan. Xasis obrazi “fikr elagidan, vaqt chig‘irig‘idan” shu tarzda o‘tib kelgan.

Yozma adabiyotda ilk xasis obrazini Rim yozuvchisi Plavt yaratgan. Plavt yaratgan xasis obrazi keyinchalik yaratilgan xasislar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki Plavtning “Xumcha”si o‘zining xalq dardidan bir parcha bo‘lganligi, milliy ruhi, hazil mutoyibalarga boyligi, muhimi,hazil zaminidagi ma’noning teranligi bilan ajralib turadi. Odam bolasining azaliy ojizligi (Ha, aynan xasislik azaliy ojizlikdir) –nafs balosi uni ne ko‘ylarga solishi, hatto aqldan ozdirib, telba holiga keltirishi betakror tarzda shoirona bir nigoh, mubolag‘ador keskin istehzo bilan hajv etiladi. Keyinchalik Plavt xasisidan ta’sirlanib yaratilgan “xasislar” ham mana shunday kinoyadan, hajvdan xoli emas. Masalan, Plavtning “Xumcha” asari ta’sirida yaratilgan barcha xasis obrazlari bir –birini takrorlamasligi, hamda mohiyat jihatdan tarbiyaviyiliqi bilan ajralib turadi. Ularda inson deb atalmish buyuk yaratiqning nafs deb atalmish balo bilan kurashi naqadar og‘ir kechishi kulgu asosiga qurib tasvirlangan. Boylik inson uchun bir sinov. Shu sinovdan mardona o‘ta olmagan, nafs domiga tushib qolgan shaxslar adabiyot uchun obraz bo‘lib xizmat qildi. Ya’ni bunday nafs bandalarini adabiyot fosh qilishga kirishdi. Bir

⁸ Fayzulla V. Azaliy g ‘ussa. –T.:Sharq,2013

so‘z bilan aytganda, endi adabiyot faqat insonlarning go‘zal xislatlarini emas, kamchilik va xatolarini kuylashni boshlagan.

Plavtdan keyin xasis obrazni ko‘pgina yozuvchilarning asarlaridan o‘rin olgan. Ularning har biri o‘ziga xos individuallikka ega. Masalan, Plavtdan ta’sirlangan Molyer o‘zining “Xasis” asarini yaratdi. Undagi qahramonning asosiy jihatni xasisligida bo‘lsa ham ko‘p o‘rinlarida Plavtning xasisidan farq qiladi. Jahon adabiyotida xasis obrazining yorqin namunasi sifatida Onore de Balzak asarlaridagi obrazlarni ta’kidlashimiz zarur. Onore de Balzakning qilgan kashfiyoti shundan iborat bo‘ldiki, u xasis obraziga falsafiy ruh bag‘ishladi. U yaratgan “Gobsek” asaridagi Gobsek o‘zining murakkab hamda falsafiy obrazligi bilan o‘zigacha yaratilgan obrazlardan butkul ajralib turadi. Gobsek nafaqat xasis balki, anglashilmagan olam sifatida adabiyot ummonida paydo bo‘ldi. Gobsek orqali adib inson deb atalmish sirli olamning yana bir qirrasini , bir inson bir vaqtning o‘zida turli rakurslarda bo‘la olishi mumkinligini kashf etdi. Shuningdek, xasis obrazining o‘lmas namunalarini ingliz yozuvchisi Charlz Dikkens ning “Nasrdagi Rodjestvo qo‘shig‘i”dagi Skruj, rus yozuvchisi Gogolda “O‘lik jonlar”dagi Plyushkin ; o‘zbek adiblaridan Sadriddin Ayniyning “Qori Ishkamba” si , Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani qahramonlaridan biri Solih Mahdum, Erkin Vohidovning “ Oltin devor” asaridagi Mo‘min chol, Said Ahmadning “ Ufq” romanidagi Orif oqsoqol kabi obrazlarda ko‘rishimiz mumkin.

1.2 . Hajv orqali xasis obrazining ijtimoiy- psixologik, badiiy- estetik jihatdan o‘ziga xosligini namoyon etish.

Badiiy asar borki, xarakter, timsol, personaj bor. Kichik bir hikoyada xarakterning tiniq bir nuqtasi, bir necha misrali she’rda xarakter kayfiyati, munosabati bo‘ladi. Xarakter-badiiy adabiyotning umumbashariy muammosi. Xarakter kalomini aksariyat faylasuf, nafosatshunos, adabiyotshunoslar qanday bo‘lsa shunday qabul qilganlar.

Har qanday davr adabiyoti o‘z boshidan turlicha rivojlanish va taraqqiyot bosqichlarini kechirgan. Barcha zamonlarda ham inson va jamiyat muammolari, murakkab xarakterli shaxslar tasviri, insoniyatning eng ezgu orzu –umidlari adabiyotda tasvirlangan. Ayniqsa, jamiyat va inson tabiatidagi muammolar adabiyot uchun asosiy tasvir vositasi sanalgan. Bunda adabiyot o‘z quroli –so‘z orqali bashariy muammolarni turli yo‘llar bilan yoritgan. Jumladan, inson tabiatidagi nuqsonlarni tasvirlashda u “ham kabob, ham six kuymas yo‘lni” tanlagan. Shubhasiz, bu yo‘l inson tabiatini kulgu asosida yoritishdir. Adabiyot jamiyat va inson hayotidagi muhim muammolarni qalamga olish jarayonida hajviy yo‘nalishda asarlar bitib, kamchilik va nuqsonlarning tuzalishidan umidvor bo‘lgan.

Xo‘sh, hajviy asarning qon tomiri hisoblangan kulguning o‘zi nima? Atoqli adibimiz Said Ahmad aytganidek, “Kulgu kundalik hayotimizda osh tuzidek zarur”. Darhaqiqat, kulgu inson hayoti uchun nihoyatda kerak. Adabiyotda kulgu bu jiddiy ish. U mahoratli, shuningdek, xalq dardini anglagan yozuvchi qo‘lida sehrli quronga aylanadi. Go‘zallik timsoli bo‘lmish oyda ham dog` bo‘lgani singari, insoniyat hayotida, jamiyatida ham qora dog`lar mavjud. Oramizda nopol kimsalar, tubanlikka botgan shaxslar, o‘zida boshqaning manfaatini o‘ylamaydigan xasislar ham uchrab turadi. Yozuvchi asarini yozish barobarida hayotimizdagи mana shunday nusxalarning payini qirqish, po‘stagini qoqish niyatida bo‘ladi. Biroq kulgu me’yorida bo‘lishi zarur. Kishining jismoniy kamchiligi ustidan kulish yaxshi emas. Chunki kishining jismoniy kamchligi ustidan kulish insoniylik prinsiplariga zid. Hajv qilish –bu kamchiliklar ustidan odob ila kula olish

san'atidir. Kulgu falsafiy jihatdan olganda, insonning olamga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini o'ziga xos tarzda ifodalab beradigan murakkab fenomen. Kulgu haqida gap ketganda, avvalo, uni bir tomondan jamiyat taraqiyotining , ijtimoiy voqelikning ko'zgusi sifatida, ikkinchi tomondan esa, inson individual borlig'ining xususiyati sifatida talqin etish mumkinligini nazarda tutmog'imiz darkor.Kulgu eng avvalo, jamiyat borlig'ini namoyon etadigan vositadir. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida Aziz Nesinning M.Hakimov tarjima qilgan o'zbekcha kitobiga so'zboshi bosildi. Unda mashhur hajvchi quyidagilarni yozadi: "Bildimki, adabiyot turlari ichida eng ta'sirchan, eng ommabopi hajviyot ekan. Shu tariqa hajviyot men uchun keng kitobxonlar davrasи, turli sinf vakillari bilan, xalq bilan muloqotda bo'lishning bir vositasi bo'lib xizmat qilmoqda".

Buyuk satirikning fikri hajviyotga berilgan xolis va haqqoniy bahodir. Hayotimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar jarayoni hajvchi adiblar uchun bitmas –tuganmas ilhom manbai bo'lishi bilan birga , ulardan turli –tuman va rang –barang g'oyaviy –badiiy pishiq asarlar yaratishini ham taqozo etadi.

Taraqqiyotning mo'ljallarini farovonlik bilan bog'lagan har qanday jamiyatda kishilarning ijtimoiy voqelikka, sodir bo'layotgan voqealar–u kechayotgan jarayonlarga munosabati o'rganilmog'i, umumlashtirilmog'i hamda bundan tegishli xulosalar chiqarilmog'i lozim. Sotsiologlar mazkur vazifani bajarishga xizmat qiladigan o'nlab uslublarni kashf etganlari ma'lum. Biroq ijtimoiy voqelikni , kishilarning turli jarayon va voqealarga munosabatini kulgiga qarab aniqlash imkonи mavjud. Faqat bunda kulgu ijtimoiy voqelikni tahlil qilishning asosiy emas, yordamchi bir uslubi bo'lib xizmat qilishini unutmaslik zarur. Biroq bundan qat'iy nazar kulgu ijtimoiy voqelikning ko'zgusi bo'lib qoladi.

Hayot baribir adabiyotga o'z muhrini bosadi. Busiz mumkin emas. Shu jumladan, har bi ijodkorning badiiy tafakkur tarziga ham. Shunda yozuvchi asarini qay tarzda yozishni belgilab olishi muhim. Ijodkor ijodi azaliy muammolarni yoritsagina ardoqlanadi, sevib o'qiladi. Agar u oldi–qochdi gaplardan iborat bo'lsa, bunday ijod namunasi o'z –o'zidan yo'qlikka mahkumdir. Asarning kuchini,

yashovchanligini, shak–shubhasiz, mavzu hamda shu mavzuga mos tushuvchi obrazlar tizimi ta'minlaydi.

Mana shunday hajv ustiga quriladigan obrazlardan biri xasis obrazidir. Biroq mazkur kulgu achchiq haqiqatdan bunyod qilinadi. Chunki ta'kidlaganimizdek, xasislik illat. Xasislikni nega aynan illat dedik? Sababki u xuddi hasad kabi insonni ich–ichidan yemiradi. Bu degani inson xasis bo'lsa nafaqat o'ziga balki atrofdagilarga ham ziyon yekazishi, ko'nglini og'ritishi mumkin. Adabiyot mana shunday shaxslarni estetik kategoriyalardan biri bo'lmish–kulgulilik kategoriyasida birlashtiradi. Kulgu, ko'pincha, shunchaki kulguli vaziyat tufayli sodir bo'lib qolmay, balki qahramolarning o'zlarini tutishlari, xarakterlarning o'sib borishi, alohida qobiliyatga ega kishilarga taqlid qilishlari, imkonи bo'la turib birovdan narsasini qizg'anishi tufayli yaraladi. Mana shunday xarakterli obrazlardan birini Muqimiy "To'yi Iqonbachcha" hajviyasida ko'rishimiz mumkin. Muqimiy "To'yi Iqonbachcha" hajviyasida o'zida bo'lmagan sifatlar bilan maqtanadigan, chirancoq odamlar ustidan kuladi. O'zbek uchun to'y qilish – o'talishi lozim bo'lgan burch, lekin uni ayrimlar soxta obro' orttirish vositasiga aylantiradi. Jumladan, iyonlik gumashta, hech kim so'ramasa ham oldindan o'g'limga unday to'y qilaman, bunday osh beraman, deb kerilib yuradigan maqtanchoqlardan biri. Gumashtaning Toshkentdagi xo'jayiniga sim qoqishi bilan kechagina katta to'y qilib, hammani qoyil qoldiraman deb yurgan kimsa birdaniga o'zgarib, to'yni yeng ichida o'tkazishga urinadi. Xo'jayinning qanday odam ekanligi quyidagi misralarda yaqqol ko'rindi:

*Men rizomas kishiga non bersang,
Yo tovuq saqlasang-u don bersang.
Tuynugingdan agarda chiqsa tutun,
Bunda ber dastmoyalarni butun.
Bo'lsa umidingiz agar bizdan
Manfaat ko'rmasin birov sizdan.*

Toshkentlik boyning bu ko'rsatmasi Iqondagi gumashta uchun dastur bo'ldi.Lekin to'yni o'tkazmaslikning iloji yo'q edi. Shuning uchun ham gumashta boy ko'rsatmalariga amal qilib, to'y xarajatlarini kulguli darajada qisqartiradi. Muqimiy ushbu ikki obraz orqali inson xarakter tabiatiga mos va xos insonlar bilan birga bo'lishini ta'kidlaydi.Munofiq, ikkiyuzlamachi, xasis bu ikki shaxs "bir – birini qorong'uda topib olgan ko'rga" o'xshaydi.

Muqimiyning tasvirlashicha, maslahat oshiga uch kishi chaqiriladi,qo'y so'yilib go'sht-yog'i xumga bosiladi,ular oldiga kalla sho'rva olib chiqiladi.To'yga yetti kishi aytilib ular oldiga "qotg'on mog'or otg'on" non qo'yiladi.Hajviyaning keyingi qismida bevosita "to'y"ning o'tish jarayoni kulgili yo'sinda aks ettiriladi va bunda shoirning mahorati to'la namoyon bo'ladi.Bu hol odamlarni to'yga aytish tasvirida ko'rinadi:

*Yetti odamni o'z mahallasidan,
Qorni to 'q yangi to 'n basallasidin,
Qildi shovqinlamay imo uyidin,
Mundin,undin,yuqoridin,quyidin.*

Ma'lumki,o'zbekning to'yiga hamma aytiladi. Gumashtaning o'zi ham ko'pchilikning to'yiga borgan,lekin o'z to'yiga yuqoridagiday qilib, yetti kishinigina chorlaydi.To'yxonadagi holat esa undan ham g'aroyib:

*O'choq ustida gar yo 'talsa birov,
Yer edi yelkasiga yetti kosov.
Biri qattiq chiqarsa ovozin,
Bilmasin qo 'shni deb tutin og 'zin.*

Muqimiy gumashta obrazini zo'r mahorat bilan chizgan.Satirada keltirilgan epizodlar g'oyat xarakterli va o'rinli.Oyoq uchida yurib ish bitirish,yeng ichida to'yga odam aytish,ovozi chiqarmay osh damlash,o'choq boshida yo'talgan kishining yelkasiga kasov bilan tushirish,dasturxon yozish va osh tortish-bularning hammasi bir maqsad uchun – gumashta obrazidagi xasislik, shuningdek, o'z fikriga ega emaslik, uyatsizlik, maqtanchoqlik illatlarini yaqqol ko'rsatish uchun

xizmat qiladi.Chunonchi to‘yga yozilgan dasturxon va tortilgan osh ta’rifi shunday bayon etiladi:

*Soldi alqissa eski dasturxon,
Qo ‘ydi, soyil kabi necha xil non.
Suzdi osh bir likavda uch kishidin,
Ketti oshni ko ’rib hamma hushidin.
Osh misoli tabaqda ko ‘z yoshi,
Kurmaki ko ’p gurinchidin toshi.*

Muqimiy satira oxirida to‘y o‘tgandan so‘ng hisob-kitob qilinganini, jami xarajat o‘ttiz uch tanga bo‘lganini aytib,qo‘qonlik gumashtaga el-yurt nomidan “uyatsiz” degan baho berib satirani o‘ziga xos uslubda tugatadi.

Satirada ortiqcha,keraksiz epizod-lavha bo‘lmaganidek,birorta o‘rinsiz so‘z badiiy tasvir ham yo‘q.Satira g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk va kompozitsion tuzilishi jihatidan tugallangan asardir. Muqumiy tasvirlagan gumashta obrazi jamiyatdagi ma’lum ijtimoiy guruhning mohiyatini ochib beruvchi tipdir.U mulkdorlar o‘rtasida keng tarqalgan va bo‘lgan sari bo‘lavserin qabilida ish tutuvchilarga xos bo‘lgan xasislik va baxillik xususiyatlarini o‘zida gavdalantiradi.

Muqimiy inson xarakteridagi jami murakkabliklarni tadqiq etishda hajv yo‘nalishidan g‘oyat samarali foydalangan. Zero, hajviyot xalqning diliqa yaqin janrdir. Hajviy asarlar davr, makon va zamon, boy –kambag‘al tanlamasligi bilan ahamiyatga molikdir. Hajv bacha davrlarda zarur, odamlar unga ehtiyoj sezadilar. Chunki barcha yomon illatlarni, kamchilik va nuqsonlarni fosh etishda va ularga qarshi kurashishda , shu bilan birga yaxshi xislatlarni ulug‘lashda hajv g‘oyat katta rol o‘ynaydi.

Yuqoridagi mulohazalar orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Obraz badiiy kashfiyat. U tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo‘lgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa;
- Xasis xarakterini shakllaniruvchi omillar sifatida insonning genetikasi, turmush tarzi, yoxud tarixiy sharoitdagi iqtisodiy vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi;

- Xasis obrazi genezisi xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi;
- Xasis obrazining dastlabki, boshqa xasislar uchun asos bo‘lgan namunasini Plavt yaratgan;
- Adabiy aloqa va ta’sirlar ushbu obraz taraqqiyotida sezilarli sifat o‘zgarishlari, siljishlarni vujudga keltirgan;
- Abdulla Qodiriy, Sadriddin Ayniy, Said Ahmad, Erkin Vohidov ning komediya, roman, qissa, hikoyalarida xasis obrazining millatimizga xos namunalarini uchratamiz. Bu borada yozuvchilarga Plavt, Molyer, Balzak kabi G‘arb ijodkorlari asarlarining ta’siri kuzatiladi.
- Hajv hayotdagi kamchiliklarni kishilar dilini og‘ritmay tasvirlashning eng qulay usuli;
- Ijtimoiy voqelikni , kishilarning jarayon va voqealarga munosabatini kulguga qarab aniqlash mumkin;
- Muqimiy inson xarakteridagi jami murakkabliklarni tadqiq etishda hajv yo‘nalishidan g‘oyat samarali foydalangan.

II BOB

G‘ARB ADABIYOTIDA XASIS OBRAZI KO‘RINISHLARI

2.1 PLAVTNING “XUMCHA” ASARIDA XASIS OBRAZI TALQINI

G‘arb adabiyoti hayotni, jamiyatni, unda kechayotgan jarayonlarni real asosda tasvirlashi bilan Sharqdan farq qiladi. G‘arb adabiyotida ham xasis obrazi , dastlab, xalq og‘zaki ijodida shakllangan bo‘lsada, yozma adabiyotdagi dastlabki yorqin namunasi sifatida Plavtning “Xumcha” (Ko‘milgan xazina) asaridagi Evklion obrazini ko‘rishimiz mumkin.

Tit Maksiy Plavt – qadimgi Rim dramaturgi , taqlidiy komediyaning eng buyuk namoyondasidir. Plavt III asrning o‘rtalarida Italiyaning Umbriya viloyatida tug‘ilgan. Kambag`al oilada dunyoga kelgan shoir, yoshligida Rimga kelgan va teatrda sahna ishchisi bo`lib ishni boshlab, keyinchalik o`z kuchini aktyorlik mahorati bo`yicha sinab ko`rgan. Sayyor teatr bilan Yunoniston safarida bo`lib, yunon tilini o`rgangan va yunon mualliflarining pyesalarini lotin tiliga o`girgan, shundan so`ng o`zi ham komediylar yozishga kirishgan. U o`zining aksariyat asarlarida bizgacha yetib kelmagan yunon komediylarining sujet va obrazlaridan foydalangan, ularni Rim hayotidan olingan voqealar hamda detallar bilan boyitgan. Plavt o`zidan oldin ijod qilgan shoirlarning –Andronik , Neviy, Enniy –usullarini davom ettirib, o`z ijodida muttasil yangi yunon komediyasi vakillarining –Felimon,Defil,Menandr –asarlarini Rim sahnasiga moslastirish bilan shug`ullangan.

Plavt komediylaridagi voqealar yunon shaharlarida bo`lib o`tib, ismlari ham yunoncha bo`lsada, Rim tomoshabini o`zini, urf –odatlarini va axloqini har doim tanigan. Plavt komediyalari juda kulgili, ular qiziqarli sahnalar, hazillar, zukko va quvnoq iboralarga boy bo`lib, asarlarining qahramonlari boylar va kambag`allar, qullar va savdogarlar ularning har biri o`z xarakteri va o`ziga xos xulq –atvoriga ega.

Ayniqsa, Plavtning “Xumcha” nomli komediyasi shoir mahoratini yana bir bor namoyon qilgan desak adashmaymiz. Asar yaratilgan davri, yoritilgan mavzusi, syujet tuzilishi jihatidan ham e’tiborga molikdir. Plavt o`z asarida davr

mohiyatini, jamiyat hayotini, ayni o`sha davr va zamon odamlarining ichki dunyosi-yu ruhiyatini tasvirlashga uringan. U ushbu komediyani boshdan oyoq realistik ruh, satirik kulgu asosiga qurgan . Asar qahramonlari :

Evklion –xonodon xo‘jayini. Xasis chol

Fedra –Evklionning qizi

Lar –xonodon xudosi

Stafila –Evklionning xizmatkori. Kampir

Megador –boy chol, Evklionning qo‘shnisi

Antilos –Likonidning otasi

Evnomiya –Likonidning onasi. Megadorning singlisi

Likonid –yigitcha, Evnomiyaning o‘g‘li

Strobil –qul

Pidofik –qul

Anfrak –oshpaz

Kongrion –oshpaz

Asar xonodon xudosi Larning nutqi bilan boshlanadi. Ayni shu nutq asar mazmunini, mohiyatini ochishga xizmat qilgan. Plavtning mahoratini shundan ham ko‘rishimiz mumkinki, komediyada ishtirok etayotgan har bir obraz “ osmondan tushib qolgandek “ harakat qilmaydi. Ularning har biri ikkinchisining yarmi bo‘lib xizmat qiladi. Asarda u qadar katta o`rin egallamagan xonodon xudosi Larning nutqi ham o`z ovoziga egaligini bildirib turadi. Lar ushbu xonadonga ko‘pdan buyon xizmat qilib kelganligi sababli, ularning xarakteristikasini juda yaxshi biladi. Evklionning xasisligi ota-bobosidan meros. Evklionning ajdodlari ham xasis va baxil insonlar bo‘lishgan. Lar ning so‘zlaridan buni bilib olish mumkin:

Men bunda ko‘p yil yashab keldim,

Bu yangi uy egasining

Ota –bobolarin himoya qildim.

Yashirilgan oltinni menga omonat

Topshirgandi bobosi:uy o‘rtasiga

Ko ‘mdi-da , qo ‘riqlash uchun menga yolvordi.

U o ‘ldi:ruhi shunday ochko ‘z edikim,

Ko ‘rsatmadi oltinni o‘z o ‘g ‘liga ham.

Afzal ko ‘rdi o ‘g ‘ilning qashshoqligini.

Komediyaning butun kuchi xasis Evklion ustida to‘planadi. U topib olgan (aslida o‘z otasi yashirgan) va endilikda o‘zi yashirib qo‘ygan bir xum oltinni begonalardan asrash uchun qo‘lidan nima kelsa shuni qiladi. Dramaturg Evkliondagi nuqsonlarni voqealar mantiqiga mos holda rivojlantirib, bir nuqson ikkinchi illatni keltirib chiqarishini, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni mahorat bilan ko‘rsatadi. Dastlab, xasisligi tufayli barchaga kulgu bo‘lgan chol, keyinchalik, xumchadagi tillalarni sir saqlayman deb o‘z soyasidan cho‘chuvchi qo‘rqqoqqa aylanadi. Shu qo‘rquvi tufayli Evklion xizmatkor kampirni kaltaklashdan ham toymaydi.

Evklion

Yo ‘qol! Yo ‘qol bu yerdan! Ket! Qorangni ko ‘rmayin!

Mo ‘ralash bo ‘lsa senga ko ‘zingni piyola qilib!

Stafila

Nima uchun kaltaklaysan men bechorani?

Evklion

Sen kasofat , chinakam baxtsiz bo ‘l, chirkin ,

Naq o ‘zingga munosib chirkin yashagil.

Evklion xasisligi odamlarga bo‘lgan ishonchining yo‘qolishiga sabab bo‘ladi va natijada, uning ijtimoiyik darjasini yo‘qolib boradi. Yozuvchi Plavt mahorati shundan iboratki, Evklionga nisbatan qo‘zg‘agan kulgu shafqatsiz, chunki uning xatti –harakatlari shunga juda mos keladi. U qiziga sovchi bo‘lib kelgan Megador bilan suhbatlashish chog‘ida ham o‘z xarakteri yana bir karra namoyon qiladi.

Megador

Berasanmi?

Evklion

Mayli, beray.

Megador

Tangri, o 'zing baxtni och

Evklion

*Baxt ber, Tangri! Lekin sen ham unutmagil har holda
Men qalinsiz qiz beraman , mana shu shartga ko 'ndik.*

Megador

Unutmayman.

Evklion

Bundan ketdi. Ey Tangrilar! Oltin kuchini qara!

Uyimdag'i xazinani eshitgan deb o 'ylayman .

Shuning uchun og 'zi karnay, qarindoshlikka urdi.

Asardagi dialoglar tabiiyligi, qahramonlarga xos va mos yaratilganligi bilan o'quvchini lol qoldira oladi. Har bir obraz o'z tiliga ega. Hech biri ikkinchisini takrorlamaydi. Ikkinci darajali personajlar nutqi ham asar mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Strobil

Bu nima gap? Bu qanday savol?

Cholimiz qattiq non, quruqdan quruq.

Evklion shuqadar xasiski, o'z quli Strobilning masxara qilishiga qaraganda, u "uyqusida mabodo nafasini chiqarib yubormaslik uchun, uqlash oldidan og'ziga qop yopadi". Sababki,topib olgan xazinasi haqida uyqu paytida gapirib yubormaslik uchun.

Strobilning kulgusi shunchaki,qitmir va quvnoq qulning xasis xo'jayini xarakteri ustidan kulish emas, unda jamiyatda kechayotgan barcha voqeahodisalar, muammolar, qolaversa, shu toifadagi insonlar ustidan baralla kulishdir.

Strobil

Bilasanmi, yana qanday xulqi bor?

Sal yuvinsa -yig`lar, suvni qizg`anar!

Anfrak

*U choldan birmuncha pul tilab olib,
O`zimizni ozod qilsak bo`lmasmi?*

Strobil

*Ochlikdan qarz so`rasang, baribir bermas,
Sartaroshda bir kun tirmog`in olgan
Tirnoqlarni yig`ib kissaga solgan.*

Anfrak

Ma'lum, ziqna esa –ziqna, sening odaming.

Strobil

*O`yla, shu qadar ziqna va isqirt!
Yaqinda kalxat uning shovlasin cho`qib qochgan
U fig`on ko`tarib boradi sudga,
Kalxatni, albatta sudga tortishni
Iltimos qiladi oh –voh bilan.*

“Kulgu dunyoga qo‘rqmay munosabatda bo‘lishning asosini tayyorlashda muhim omil”⁹, deydi Baxtin.

Ushbu fikrga tayanib shuni aytish mumkinki, Strobil obrazi asarda “haqiqatni ko‘rsatuvchi oyna” vazifasini o‘tagan. Baxtin o‘z izlanishlarida Strobil kabi atrofdagilarning (ayniqsa xo‘jayinlarining) xasisligi, ochko‘zligi, qo‘r quoqligi ustidan kuluvchi obrazlarni “fosh etuvchi” obrazlar sirasiga kiritadi. Telba, ayyor, masxara obrazlari shular jumlasidandir.

“Ushbu moslashuvchan , yashovchan obrazlar genezisi, olimning kuzatishicha, eng qadimgi davr xalq ijodiyoti namunalarida ham bor edi. Ular jamiyatdagi ochiq –oshkora tanqid etish mumkin bo‘lgan illatlarga qarshi kurashuvchi , o‘ziga xos vosita vazifasini o‘tagan. Ularni fosh etuvchi kuch sifatida (qishloqi, shaharlik etikdo‘z shogirdi, yosh butxona rohibi, umuman, turli toifadagi daydilar obrazidagi

⁹ Жүрақулов У. Назарий поэтика масалалари. . –Т.: Ғафур Ғулом, 2015

) ayyorning hushyorligi, quvnoqligi, fahm –farosati, masxaraning muqallidona mazaxlari, telbaning sodda anqovliklari qarshi qo‘yiladi. Og‘ir va zim –ziyo yolg‘onga firibgarona quvnoq yolg‘onlar,g‘arazu riyokorliklarga telbaning beg‘araz soddaligi, anqovligi va barcha majburiyatlar, yolg‘onlarga masxaraning harakatlari ters turadi”.¹⁰

Plavtning xarakterlar xususiyati tasviridagi mahorati shundan iboratki, u ikki bir –biriga zid,kelishtirib bo`lmas xarakterning xatti–harakati, ruhiy kechinmalarini ularning murosasiz ichki mantiqidan kelib chiqib belgilashga erishadi. Bunda u har bir xarakterning o`z ruhiy dunyosini, kechinmasini, xarakter xususiyatini ifodalashni ularning o`z ixtiyoriga topshirib qo`yadi. Oqibatda, dramatik asarning talabiga ko`ra bo`lganidek, har bir obraz o`z –o`zini ochishga xizmat qiladi. Jumladan, Evklionning xasislik xarakteri ham odamlar bilan bo`lgan suhbatida gapirgan gaplarida “bo`y berib turadi”.

Evkliion

Bugun qizimni to`yida biroz

Yayratib ruhimni ko`tarmakchidim.

Bozor bordim: baliq so`rasam qimmat ekan ko`p ,

So`ng so`radim undan qo`y go`shtini, sigir, buzoq go`shtini,

Nimaiki qo`lga olsang, bari qimmatdir.

Ayniqsa ham go`sht qimmat: sira pulim yo`q.

Olish uchun bir chaqam yo`q, dard bilan ketdim.

Shunday qilib qaroqchilar qo`lidan qochdim

Yo`l –yo`lakay o`ylab keldim men o`z –o`zimcha,

“Bayram kuni o`ng so`l boqmay tanti bo`lasan,

Bayram o`tgach, dekchang suvda” –men yuragimga

Va medamga bu fikrni yaxshi uqtirdim.

To`yni qanday oz sarf bilan o`tkazish uchun

¹⁰.Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. . –Т.: Ғафур Ғулом,2015

Tuzgan ushbu qarorimni dil ma'qul topdi.

Sotib oldim bir guldasta, tutatqi o't bu,

Uyb xudosin mehrobiga qo'yaman buni .

Qizim uchun baxt bag`ishlasin u.

Obrazlarning tashqi qiyofasi hamda faoliyatida, suhbat jarayonida xarakteriga xos chizgilarning aniq bo`rtib turishi esa asar mazmunini yanada yaqqolroq namoyon qiladi. Yana shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, barcha obrazlar – bosh qahramondan tortib, ikkinchi darajali obrazlargacha –barcha –barchasi yig`ma obrazlar sanaladi. Ushbu obrazlar o`sha davr muhiti, ijtimoiy holatini ko`rsatib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Evklion obrazi xarakter darajasiga ko`tarilishi bejiz emas. Chunki Plavt ushbu obraz asosida millatning o`z davridagi suratini chizib bera oladi. Adib qahramon ongida qotib qolgan bosh qahramonning favqulodda ayricha inson bo`lishi lozimligi, uning hech kimga o`xshamasligi, mukammallik kasb etishi kerakligi singari eski qoldiqni o`z asari bilan yo`qqa chiqardi.U xalq ichidagi “oddiy” insonlarni obraz darajasiga ko`tardi. Badiiy adabiyot insonshunoslik ekan, insonlarning qalbida saxiylik va xasislik birga shakllanishini, tuyg`ular yaxshilik –yomonlikni o`ylab o`tirmasligini hech qachon esdan chiqarmasligimiz lozim.

Asarning oxiri yetib kelmagan, biroq taxminlarga ko`ra komediya so‘ngiga qadar Evklion oltinlarni topadi. Shu bilan birga u boylik har doim ham baxt olib kelmasligini anglab yetadi. Shu sababli u o`z boyliklarini yakka –yu yagona qizining baxti uchun sarf qilishni xohlaydi. Evklion boyliklarni qiziga beradi. Plavtning “Xumcha” komediyasidagi tasvir xarakterlarning o‘zaro munosabatlari, individual jihatlari, xarakter va sharoit munosabati ko‘lamiga ko`ra realistik xususiyatga egadir.

Inson hech qachon yolg‘iz, ayri yashamagan. U doim kimdandir o‘rganadi yoki kimgadir o‘rgatadi. Ilm –fanda yaratilgan ma’lum bir yangilik faqat bir millat doirasiga tegishli bo‘lmaganidek adabiyot va san’at maydonidagi noyob iqtidor egalari ham butun insoniyatga daxldor hisoblanadi. Shu jumladan, Plavt dahosi

hamda uning yaratgan xasis obrazi zamonlar o‘tsada, keyingi shu xildagi obrazlar uchun andaza vazifasini o‘tab kelmoqda.

2.2 UYG‘ONISH VA KEYINGI DAVR. G‘ARB ADABIYOTIDA XASIS OBRAZI MASALASI

Renessans –fransuzcha “Renaissayce”–“uyg‘onish” ma’nosini anglatadi. Renessans- inson ma’naviy taraqqiyotidagi uyg‘onish davri XV asrdan Yevropada boshlandi. Tabiiyki, ushbu ijtimoiy–tarixiy jarayon Yevropaning turli mamlakatlarida turli shakllarda kechdi. Renessans davri Yevropada uch asosiy bosqichni:

Ilk bosqichi (XIV asr)

Yetuklik bosqichi (XV asr)

So‘nggi bosqichini (XVI asr) bosib o‘tdi.

Renessans davri o‘ziga xos Yangi madaniyatni yaratdi. Ushbu madaniyat nafaqat dinga, balki ilm va fanning ilg‘or yutuqlariga tayana boshladi. Renessans davri insoniyat bosib o‘tgan tarixiy taraqqiyot yo‘lining eng muhim davrlaridan biridir. Bu davr jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Uyg‘onish davri madaniyatining ahamiyati uning feodal tuzumi va cherkovga qarshi g‘oyaviy kurash olib borishi bilan belgilandi. Inson shaxsini ulug‘lash, kishi ongini dinning sarqitlaridan tozalash, tabiat va jamiyatni inson manfaatlariga xizmat ettirish uyg‘onish davrining muhim xususiyatlari hisoblanadi. Uyg‘onish davri adabiyotining yana bir xususiyati shundaki, gumanistik adabiyotning rivoj topishi va uning realistik mazmunda bo‘lganligidadir. Gumanistlar antik manbalarda tenglik vaadolat uchun kurash g‘oyalarini oldilar.

Renessans davrida gumanistik g‘oyalarni ulug‘lagan Dante Aligyeri(1265 - 1321),Franchesko Petrarka (1304- 1374), Jovanni Bokachcho(1313- 1375), Georgios Gomistes(1360-1425),Piko della Mirandola(1463-1495) kabi buyuk zotlarning katta bir sulolasini yetishib chiqdi.

Inson to‘g‘risidagi qarashlar renessans davrida yanada yuksaklikka ko‘tarila boshladi.Insonning qadr–qiymati har tomonlama oshib bordi. Inson “Xudodan ajralib” mustaqil fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ldi –endi u falakiyotdan emas, balki o‘zidan najot izlay boshladi.O‘zining teranlashib borayotgan tanasining imkoniyatlaridan madad qidirishga tushdi.Xuddi shu bois renessans davri antroposentrizmida go‘zallikni ulug‘lash tamoyili ustuvor mavqega ko‘tarildi. Tasvirlarda inson go‘zalligini, ayniqsa, uning qiyofasidagi latofatni tasvirlash o‘sha davr san’ati uchun bosh mavzuga aylandi. Bunday holatni renessans davrining mashhur musavvirlari –Botchelli, Leonardo da Vinchi, Rafael asarlarida ko‘rish mumkin.

Demak, Uyg‘onish davrida Yevropa madaniyati, ilm –fani, san’ati beqiyos darajada rivojlandi va yuksaldi. Antik davrni o‘zlashtirgan Uyg‘onish davri vakillari poetik prinsiplarni shakllana boshlagan milliy adabiyotlar nuqtayi nazaridan idrok qildilar. Adabiyot va jamiyat munosabatlari, so‘z san’atining ijtimoiy hayotdagi o`rni va vazifalari yangicha talqiniga ega bo‘lib bordi. Natijada, jahon adabiyoti tarixida muhim bosqich sanalgan Uyg‘onish adabiyoti keyingi davrlar adabiyotiga ijobiy ta’sirini o‘tkazdi.

Uyg‘onish davri dastlabki davrida inson tasviri faqat oq bo‘yoqlarda ko‘rsatilgan bo`lsa, keyingi davrlarda unga turli xil “ranglar” qo‘shila bordi. Endi inson va uning dunyosi kengroq ochila bordi. Faqat yaxshilik va yomonlik bor degan tushuncha mohiyatini o‘zgartirib, insondagi boshqa xarakter xislatlari: xushfe’lllik, qo‘pollik, baxillik va saxiylik, qo‘rkoqlik, mardlik singarilar yoritila bordi. Shunday “rangli xarakter” yaratganlardan biri Molyer hisoblanadi. Uning “Xasis” komedyasi o‘z nomi bilan baxil va xasis obrazning xususiyatlarini ko‘rsatib berishga xizmat qilgan.

Molyer fransuz klassik komedyasini fransuz xalq traditsiyalari bilan Rim komediyalarining eng yaxshi namunalarini tanqidiy o‘zlashtirish asosida yaratdi. U komedyani “jamiyat oynasi” deb ataydi. Molyerning ko‘rsatishicha,

“komediyaning vazifasi kishilarni kuldirib turib, ulardagi nuqsonlarni tuzatishdan iboratdir”¹¹

Bu ikki vazifadan birining ado etilmasligi komediyaning ta’sir kuchini yo‘qqa chiqaradi. Adib insonlardagi mol –mulkka o‘ta moyillik, ya’ni hirs qo‘yish va jinsiy kamsitish, ochko‘zlik va ikkiyuzlamachilik, amalparastlik va rasmiyatçilik kabi illatlarni davolash uchun kulguning o‘rni beqiyos deb hisoblgan. XIX asr oxiri va XX asr boshida yashagan fransuz faylasufi Genri Berkson Molyerning kulgu haqidagi fikrlarini quyidagicha izohlagan: “Kulgi insonni butunlayligicha anglashga yordam beradi. Kulguda “taxir maza” bo`ladi.”¹²

Fransuz yozuvchisi Alfred de Myusse aytganidek, “biror narsa ustidan kulishdan so`ng, yig‘lash kerak bo‘ladi yoki boshqacha so‘z bilan aytganda, kulguning oqibati yig‘idir”¹³

Molyer asarlaridagi kulguning asosida ham achchiq kinoya, ko‘z yoshga sabab bo`luvchi mohiyat yotadi. Insoniyat nafsi tufayli o‘zlikdan, odamlar mehr – shafqatidan judo bo‘lishini unutib qo‘yadi. “Xasis”da o‘quvchida ham kulgu, ham nafrat uyg`otuvchi syujet mavjud. Molyer “Xasis” komediyasining syujetini qadimgi Rim komediyanavisi Plavtning “Xumcha” komediyasidan olgan. Biroq Rim dramaturgi tomonidan yaratilgan xasis obrazi Evklion aslida kambag`al bo‘lib,bir xumcha oltin topib olganidan so`ng unda ziqlalik boshlanadi. Molyerdagi xasis Garpagon boylik to‘plashga hirs qo`ygan aqcha dunyosining vakilidir.

“Xasis” Molyerning tipik “xarakterlar komediyasidir”. Butun maqsad bosh qahramon xarakterining umumiyligi tomonlarini emas, balki Gargapon uchun asosiy xususiyat–xasislikni ochishga qaratiladi.Komediya markazida Gargapon obrazi turadi.

¹¹ Saidov. A. Jahon adabiyoti durdonalari. I jild. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2015

¹² O’sha asar.

¹³ O’sha asar.

O‘ta xasis Gargaponning xasislik xarakteri mutlaq hirsdir. Molyerning diqqati inson xarakterini ochish emas, balki ilgaridan belgilab qo`yilgan Gargapon xarakterining bir nuqtasini ko‘rsatishga qaratilgan.Gargapon xasisligi shu darajadaki, o‘z boyliklarini hech kimga ishonmaydi va ravo ko‘rmaydi. U boyligini hatto farzandlarining to‘yi uchun ham sarflamaydi. Xuddi shu xislat Evklionda ham bor.Farqi shundaki, Evklion o‘z farzandining to‘yi uchun oz bo`lsada pul sarf etadi.Garchi bundan og‘rinsada, Gargapon esa hatto pulining oz qismini ham jigarbandlariga ravo ko‘rmaydi.Garpagondan pul so‘ragan kishi go‘yo uning qalbiga xanjar sanchgandek bo‘ladi.Uning xasisligi xuddi Plavtning “Xumcha” sidagi Evklionga o`xshab ketsa-da, undan farq qiluvchi jihatlari ham bor. Albatta, har ikki qiyofa tasvirini yozuvchilar o‘z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda gavdalantirgan, lekin Gargapon obrazini yaratish uchun muallif qaysidir ma’noda Evklionga murojaat qilgan deyish mumkin.

Plavt o‘z asarida Evklioning xasisligidan tashqari qolgan xislatlari-qo‘rroqligi, munofiqligi, odamlarga nisbatan ishonchsizligi, farzandi uchun oz bo‘lsa ham qayg‘urishi kabilar ham yoritilgan.Molyerning “Xasis”ida esa Garpagon –xasis va faqat xasisdir. Shu jihatlari bilan Gargapon xasislikning “oliy cho`qqisiga chiqqan” obraz sanaladi. Gargapon “Olar kirar jonim, Berarda chiqar jonim” lar toifasiga kiradi .Shu xasisligi uchun ham Lyaflesh Garpagonni “hamma odamlardan eng yaramas odam, ziqna, johil”,deya ta’riflaydi.

Xasisning qizi Eliza Valer degan yigitni sevadi. Biroq Gargapon qizini Valerga emas, savdogar Anselmga uzatishni ko‘zlaydi.Sababi esa savdogarning qizdan hech qanday bisot talab qilmaslidir. Eng qizig`i shundaki, Gargaponning o‘zi o‘g‘liga olib bermoqchi bo`lgan qizdan ancha–muncha miqdorda qalin talab qiladi. Ha, u so`ramaydi. Talab qiladi. Ayni shu nuqtada Molyer inson tabiatidagi nafsiy istak–boylikka bo`lgan o’chlik naqadar munofiqona ekanligini tasvirlaydi.Gargapondagi xasislik ochko‘zlikni, ochko‘zlik munofiqlikni keltirib chiqishi ko‘rsatib berilgan bo‘lsa ham, hech bir jihat xasisligi singari nafratga sazovor bo‘lolmaydi.

Xasisning o‘g‘li Kleant aslida Marianaga oshiq. Lekin unda qizning ko‘nglini ovlash uchun sariq chaqa ham yo`q. Shuning uchun ham yaqinda otasidan qoladigan meros evaziga deb, boshqa sudxo‘rdan qarz olishga ahd qiladi. Ammo sudxo‘r o‘z nomi bilan sudxo‘r-da, u 25% foyda talab qiladi. Bunday nohaqlikka chidolmagan Kleant :

“*Bu baloxo ‘rlik! Kuppa –kunduzi talash!*” –deydi.

Bu xitob aslida, Molyer qalbidan sizib chiqqandek go‘yo, chunki yozuvchi jamiyatda kechayotgan mana shunday nohaqlik, munofiqqliklarni, oddiy xaljni talashga bo`lgan intilishlarni ko‘rib qiynaladi. Kleant tomonidan aytilgan ko`p so‘zlar otasi Gargaponning xasisligini ochishga qaratilgan. Jumladan, qarz beruvchi –sudxo`r va qarz oluvchi –Kleant uchrashganlarida, ular ota –bola Gargapon va Kleant bo`lib chiqadilar. O‘zaro suhbat jarayonda Kleant otasining so`zlaridan g‘azablanib, ichidagi bor g`azabini to‘kib –sochadi.

– *Sizningcha, kim jinoyatchi? Muhtojlikda qolib katta foyda berish evaziga qarz olgan kishimi yoki pulga muhtojlik sezmagan holda uni bosqinchilik bilan qo`lga tushirgan kishimi?*

Gargaponning farzandi Kleant va Eliza otasining pulidan suiiste’mol qilish uchun emas, balki undan zarur bo‘lgan darajada xushchaqchaq turmush kechirish foydalinishga intiladilar. Ular Gargaponning o‘ta qurumsoqligi, toshbag‘irligiga qarshi kurashadilar. Farzandlari otasini yomon ko`rishmaydi. Faqat undagi xasislik farzandlari uchun to‘kin yashashga imkon bermaydi. Ayni shu tufayli ham ular otasini aldashga, unga hiyla ishlatishga majbur bo`ladilar. Farzandlarining Gargaponga sira o`xshamasligi, saxiylik xislatlarining ularda mavjudligi asarda ota va bola konfliktini vujudga keltirgan. Mingta yolg`on ichidan bitta haqiqatni topsa bo`ladi, chunki oppoq narsa qora narsalar ichida yanada yorqinroq ko`rinib turadi. Gargaponning xasisligi shuqadar qora bo`yoqlarda tasvirlanganki, atrofidagilarning har qanday ishlari –yaxshimi yomonmi o`quvchi ko`ziga ijobiyl bo`yoqlarda ko`rinaveradi. Gargaponning xizmatkorlari o`g‘li Kleant o‘z sevgan qiziga erishishiga yordam berish maqsadida, uning oltinlarini o`g`irlaydi. Asarning kulminatsion nuqtasi ham ayni shu joydan boshlanadi. Gargapon uchun hayot o‘z

ma’nosini yo`qotadi go`yo. Gargapon o‘g‘rini qidirishni boshlaydi. Shu nuqtada asarga satirik kulgu yetakchilik qila boshlaydi. O‘g‘rini ushslash davomida u hatto o`z qo‘lidan shubhaga boradi.

“*To `xta! Bu kim?*” deb qo`lini o`z qo`lini ushlab oladi.

Hammaga gumon bilan qarab, ko`rgan kishisini “o`g`ri” deb biladi. Barchaning dorga osilishni istaydi. Ayni shu o‘rinda Molyer inson ichidagi eng chirkin illatni ko‘rsatib beradi. Baxtsiz odam hammaning baxtsiz bo`lishini xohlagani kabi Gargapon ham barchaga baxtsizlik tilaydi. U hammaning dorga osilishini istaydi, agar oltin topilmasa, o`zini ham osmoqchi bo`ladi.

Plavtning ham, Molyerning ham yaratgan xasislarini tadqiq qilarkanmiz, ularning mohirona usuldan foydalanganligi diqqatimizni tortadi. Asar boshida qanchadir miqdorda bo‘lsa ham mulkka ega qahramonlar asar so‘nggida hech vaqosiz hamda kimsasiz holda yolg‘iz qoladilar. Bu orqali yozuvchilar boylik hech qachon insonga vafo qilmasligini ta’kidlagandek bo‘ladilar. Boylikka haddan ortiq ruju qo‘yish esa alaloqibat insonni yolg‘izlikka mahkum etishi bilan ogohlantiradilar. Dastlab mavjud bo‘lgan holda, keyinchalik yo‘qolib qolgan boyliklar esa tobora yo‘qolib borayotgan vijdon, diyonat kabi xislatlarga qiyoslanadi.

Gargapondagi ziqualik mutlaq ehtiros. Gargaponning mulkka hirs qo‘yishi, xasisligi va egoistligi uni odamgarchilikdan chiqarib qo‘yadi, boylik oldida o‘z bolalaridan ham voz kechadi. Molyer boylik oldidagi bu hirsni katta nuqson sifatida tasvirlaydi. Molyer xasislikning ijtimoiy sabablari va uning salbiy tomonlarini ochib ko‘rsatadi. U Gargapon orqali xasislikni mutlaq nuqson sifatida berib, uni qoralaydi. Asarda Gargaponning xasisligidan boshqa jihatlari ochilmagan. Shu sababli ham Pushkin Molyerning xarakterlar yaratish metodini tanqid qilib, unga ko`p nuqson, kuchli ehtirosli jonli kishilar xarakterini yaratgan Shekspirning realistik metodini qarshi qo`yadi.

“Shekspirda –Sheylok xasis, ziyrak, qasoskor, farzandsevar, hozirjavob, Molyerda –xasis faqat xasisdir”¹⁴ deyishda haqli edi. Chunki Molyer yaratgan xasis obrazi boshqa obrazlar singari achchiq kulgu uyg‘otib o‘tirmaydi. Asar o‘quvchida Gargaponga nisbatab nafrat tuyg’usini uyg‘otib yuboradi.

Biroq shuni alohida ta’kidlash zarurki, Molyer adabiy mahorati orqali xasislikni yaramas bir illat sifatida haqqoniy tasvirlab, adabiyot tarixida o‘lmas hamda boshqalariga o‘xshamagan xasisni yarata oldi.

Xasis obrazining avvalgilarga o‘xshamagan, nisbatan murakkab namunasi sifatida Onore de Balzakning “Gobsek” asarini olishimiz mumkin. Buyuk adib yozgan asarlarini “Insoniyat komediysi” degan umumiy nom ostiga birlashtirib, uni 3qismga bo`ladi:

- 1.Xulqlar haqida etyudlar
- 2.Falsafiy etyudlar
- 3.Tahliliy etyudlar

“Gobsek” hikoyasi birinchi qism ya’ni “Xulqlar haqida etyudlar” qismiga kiradi. Unda xasis xarakteridagi murakkab qahramon tabiatini ochib berilgan. Hikoyada real voqelikka tanqidiy munosabat ifodalanadi. XIX asrda jamiyat ichida ro`y berayotgan hodisalarining hech biri Balzakning qalamidan chetda qolib ketmagan. Jumladan, sudxo`rlik illati ham. Gobsek mana shunday sudxo`r, xasis, munofiq inson hislarini bir pulga olmas temir yurakli shaxslar timsoli.

Asar nomi bir yoki bir necha so‘z bilan ifodalanishi, yuzlab sahifalarga sochilgan mazmunni o`zida aniq jamg`arishi, nomlanishidanoq o`quvchini o`ziga jalb qilishi lozim. Bu judayam murakkab, ayni chog`da rohatbaxsh hamdir. Har bir asar uchun tanlangan saravha uning mavzusi, g`oyasi, yozuvchi aytmoqchi bo`lgan dardlaridan kelib chiqadi. Nom –asar ma’no markazidir. O‘xshatib topilgan nom asarning yarim yukini zimmasiga oladi. “Gobsek” qissasidagi Gobsek –(ochko`z)

¹⁴ О.Каюмов. Чет эл адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1973

nomiyog asarda nima haqida gap yuritilayotganidan darak beradi. “Gobsek” asari o`zigacha yaratilgan, xasis obrazini talqin qilgan asarlardan ko`p jihatlari bilan farq qiladi. Shu mavzuda yozilgan asarlarda xasis obrazlar asar so`nggida bo`lsa ham boyliklarini o`zlari uchun qadrli insonlariga qoldirgan bo`lsalar, Gobsek umrining so`nggi damlarigacha boyliklarining hatto bir misqolini birovga ravo ko`rmaydi.

Hikoya advokat Dervil tilidan aytib beriladi. Devil Gobsek bilan ko `p yillardan buyon tanish o`laroq, hali hamon uni anglay olmayotganini tan oladi. Gobsek butun fransuz jamiyatida yashvchi amaldorlarni nazoratiga olgan desak mubolag'a bo`lmas. Oddiy yerto'lada tikuvchilik qiluvchi ma'suma qizdan tortib, o`z ehtiyojlarini, kayf –u safosini oila a'zolaridan, unga jonini berishga tayyor bo`lgan otasidan ustun qo'ygan grafinyagacha uning nazoratidan chetda qolmaydi. Gobsek tasviri asar boshidanoq Dervil tomonidan eslab o`tiladi:

- *Mening so`zlarimdan siz u odamning afti basharasini ko`z oldingizga keltira olasizmi, yo`qmi, bilmadim. Lekin Akademianing ijozati bilan uni mohiruxsor deb atashga tayyorman, zero ruxsorining oqish, sarg`ishligi zarhali ko`chgan kumush rangini eslatardi.*

Mana shu ikki og‘izli ta’rif bilan Dervil Gobsekka nisbatan o‘quvchida tushunarsiz holatni vujudga keltira oladi. Zero, Gobsekning aft –basharasini ta’riflayotgan qahramon ikkinchi gapidayoq nutqiga ijobjiy bo`yoq “survoladi”. Mohiruxsor deya uning oy yuzli ekanligiga emas, rangining zaxilligiga urg‘u beradi. Dervil murakkab inson tasvirini konfliktga boy so‘zlar bilan davom ettiradi:

- *Sudxo`rimning sochlari tikkaygan , mudom hafsalal bilan taralgan, rasmana oqargan,kulrang ko`kintir edi. Yuzining tarxlari xuddi Taleyrannikidek bezraygan, shavqsiz, go`yo bronzadan quyilgandek tuyulardi. Ko`zlar kichkina, sassiq ko`zannikidek sariq, qariyb kipriksiz, o`tkir yoruqqa tob berolmas, shu bois soyaboni katta, uringan kartuz kiyib yurardi. Uzun burnining uchi cho`tir, parmachaga o`xshar,lablari kimyogarlar,Rembrandt va Metsu suratlaridagi ko`hna chollarnikidek yupqa edi. Bu odam sekin, mayin gapirardi,hech qachon qizishmasdi. Uning yoshini aniqlash mahol edi:shuncha*

umr ko`rib u keksayganmi yoki yaxshi saqlanganu abadulabad yoshdek bo`lib qolaveradimi, zinhor –bazinhor tushunolmasdim. Uning xonasidagi hamma narsa :yozuv stoliga yozilgan yashil movutdan tortib,karavot oldiga solingan gilamchagacha top –toza qilib qo`yilgan edi. Xuddi kun bo`yi befayz oshyonida hammayoqni supurib –sidirib, mebelni mum bilan artib yuruvchi qari qiz uyining o`zginasi edi. Qishda kaminda kul bilan qoplangan cho`g` asta tutab turar, hech qachon gurillab yonmasdi. Ko`zini ochganidan to yo`tali tutadigan kechga dovur uning harakatlari soat kapgiri singari bir maromda bo`lardi. U bamisoli ertalab burab qo`yiladigan odam –avtomat edi. Fontenel singari o`zidagi barcha insoniy his –tuyg`ularni jilovlab hayotiy kuchini tejar edi. Xullas, uning hayoti qadimgi qum soatda bir tekis to`kiladigan qumdek osoyishta o`tar edi. Ba`zan uning domiga tushganlar achchiqlanishar, qattiq qichqirishar, so`ng birdan oshxonada o`rdak so`ygandan keyin bo`ladigan sukunat cho`kardi. Kechga borib veksel –odam oddiy odam bo`lib qolar, ko`ksidagi bir parcha temir inson yuragiga aylanar edi. Bordi –yu , u o`tgan kundan ko`ngli to`lsa , qo`lini ishqalar, yuzini o`rgimchak ini kabi qoplagan chuqur ajinlardan quvonch nuri taralayotgandek bo`lardi, –rost, uning unsiz iljayishini, yuzining mushaklari harakatini, chamasi, Charm Paypoqning xuddi o`shanday sassiz kulgusiga qiyos qilish bilangina ta'riflash mumkin bo`lar. Hammavaqt, hatto eng quvonchli damlarda ham u bor –yo`gi` bir og`iz gapirar, sopolikni qo`ldan bermasdi.

Qarshilantirish –barcha xalqlar adabiyotida uchraydi. Uning mohiyati ikki obyektni bir–biriga zid qo`ygan holda uning mohiyatini yanada teranroq tasvirlashdan iboratdir. Biroq bu shunchaki qarshilantirish bo`lmay, ma'lum maqsadga xizmat qiladi, ya'ni qarshilantirish orqali ikki obyektdan birining ayrim xususiyati bo`rttirib, aniqroq, yorqinroq ifodalanadi. Balzak ham badiiy fikrni bo`rttirish,Gobsekning xarakterini yanada ochiqroq ko`rsatish uchun qarama – qarshi fikr uyg`otadigan qarshilantirish usulidan keng foydalanadi.

Gobsekka berilgan ushbu ta'rif –u tavsiflarning birortasi unga nisbatan qanday –yaxshi yoki yomon inson sifatida qarash uchun tayanch bo`lib xizmat qilolmaydi.

Gobsek nihoyatda murakkab obraz. U irodasi kuchli, favqulodda ziddiyatli shaxs. U jamiyatda vujudga kelgan tipik obraz hisoblanadi. Ha, Gobsek aynan jamiyat va unda kechayotgan jarayonlar ta'sirida shakllangan hamda yana o'sha jamiyatga qaytgan shaxs. O'rmonga bolta oralaganda keksa chinor “bu baloni daf qilishning iloji yo'q, chunki uning sopi o‘zimizdan ekan” deya bejiz aytmaydi. Asar mohiyati Gobsek orqali Balzak jamiyat va inson, yaxshilik va yomonlik, hayot falsafasi singari tushunchalarni o`quvchiga anglatishga urinadi. Gobsekning o`ziga xosligi, fikr va tuyg`ular silsilasi xarakterida namoyon bo`ladi. Uning yana bir xususiyati –inson ma'naviy olami va ijtimoiy –estetik muammolar tasvirida fikr va kechinmalar silsilasining rangin badiiy bo`yoqdorligidagi betakrorlikdir. Xasislik, baxillik, o‘zidan o`zgaga hech narsani ravo ko`rmaslik vijdonning uyqu dorisidir. Faqat o‘zini sevish, inson tuyg`ulari, hislari bilan hisoblashmaslik xasislik tegirmoniga suv quyadi, illat tomir otishiga sababchi bo`ladi. Asarda Gobsek ijtimoiy tip va kechinma hamda fikr bilan to‘yintirilgan shaxslar timsolidir.

–Unda ikkita maxluq yashaydi: o`taketgan ziqla va faylasuf, qabih mahluq va oljanoblik, -deydi advokat Dervil.

Ayni shu ta'rif asar so‘ngigacha o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi. Chunki Gobsekning xarakter xususiyatlarini anglash mushkul bo`lib qolaveradi. Uning yuragi “metal quymasi”dan bo`lganligi sababli hamma narsani oltin –pul, boylik bilan o`lchaydi. Boylikka bo`lgan qiziqishi uning qolgan tuyg`ularini yo`qotar va borgan sari xasisga –xasis bo`lganda ham o`taketgan xasisga –aylantirar, oltinlari, to`plagan boyliklari odamlar kabi yashab ko`payar deb ongida ifodalanardi. Biroq boshqa xasislar singari u ham o‘z boyliklaridan kimdir xabardor bo`lib qolishidan cho`chiydi.

– *U boymidi, kambag`almidi? Bu savollarga birorta odam javob berolmasdi.*

Men sira ham uning qo`lida pul ko`rmaganman. Bordi –yu mol –dunyosi bo`lgan bo`lsa, chamasi, bank yerto`lasida saqlanardi. U veksellar pulini undirar, ish bajarish uchun chillakdek, bug`uniki singari orig oyoqlari bilan butun Parijni ildam aylanib chiqardi. Bir kuni u tasodifan cho`ntagida pul olib yurganu, nimadir bo`lib nimchasining cho`ntagidan qo`sh napoleondor tushib

qolgan. Uning orqasidan tushib kelayotgan qo`shnisi tangani olib unga uzatgan.

- *Meniki emas bu! –deb xitob qilgan chol qo`lini siltab.*
- *Tilla! Menda –ya? Boy bo`lganimda hech vaqt shunday yasharmidim!*

Gobsek obrazi o`zigacha yaratilgan xasis obrazlaridan shunisi bilan farqlanadiki, u boylik, mol –dunyo uchun butun qarindoshlari bilan aloqani uzgan. Plavtning “Xumcha” asarida ham, Molyerning “Xasis”ida ham qahramonlar qanchalik xasis, baxil ochko`z bo`lishmasin, qarindosh –urug`dan voz kechishmaydi. Shuningdek, ular Gobsek singari murakkab obrazni tashkil qilmaydilar. Ulardagi nuqsonlar ham, kulguga, ba’zi o‘rinlarda nafratga sabab bo`luvchi holatlar ham anglashilarli. Ularga Gobsekning keng va chuqur falsafiy mushohadasi, olam va odam , hayot haqida fikr yuritgandagi zakovat yetishmaydi. Gobsek esa to`la namoyon qilinmagan obraz hisoblanadi. Uning hayotini so`zlab berayotgan Dervil tilidan aytilgan gaplardan ham buni anglash qiyin emas:

- *Garchi uni o`rganishni oldimga maqsad qilib qo`ygan bo`lsam ham , shuni sharmandalarcha e’tirof etishim kerakki, so`nggi daqiqagacha uning qalbi men uchun zim –ziyo qorong`uligicha qoldi. Ba’zan hatto o`z –o`zimdan bu erkakmi yoki ayolmi, deb so`rardim. Basharti barcha sudxo`rlar unga o`xshasa , turgan gapki, ularni xudo urgan ekan.*

Gobsek o`z yoshidagi insonlar uchun asosiy narsa pul deb o`ylaydi va umri tugagunga qadar shu e’tiqod asosida yashaydi:

- *Mening yoshimga yetsangiz, dunyoda baxt –saodatdan ham ishonchli , ketidan quvsiga arziydigan faqat bir narsa borligini bilasiz. Bu oltin. Insoning barcha kuchi oltinda mujassamlashgan.*
- *Shuhratparastlik! Bu narsa bizning qonimizda bor. Xo`sh, shuhratparastlikni nima qondirishi mumkin? Oltin! Xaddi –hisobsiz oltin. Hoyu havaslarimizni qondirish uchun vaqt, moddiy imkoniyatlar yoki shart –sharoit kerak. Nimayam derdik! Hamma narsa oltinda kurtak holatida. Turmushda u hamma narsani beradi.*

Gobsekning e’tiqodi ham, xudosi ham pul, pul, pul:

“Hayot shunday bir uskunadirki, uni pul harakatga keltiradi”

Gobsek uchun inson va uning tuyg`ulari hech qanday mohiyat kasb etmaydi. Ayni shu sababli ham Gobsek va unga o‘xshagan insonlar abadiy yolg‘izlikka mahkum qilingan. Faqat Gobsekning boshqalardan farqli tomoni shuki, u yolg‘izlikni NE’MAT deb biladi. Nafs balosi uning hayotiga, qon –qoniga singib ketgan. Shu jihatlari tufayli ham Gobsek dunyo adabiyotining falsafiylikka yo‘g‘rilgan xasis qahramoni bo‘lib qoldi.

- Yuqoridagi mulohazalar orqali bob so‘ngida quyidagi xulosaga kelish mumkin:
- Xasis obrazining dunyo adabiyotidagi eng yorqin namunasini Plavt ijodida uchratamiz;
- Plavt ijodida yunon adabiyoti ta’siri sezilib turadi;
- Asar tasvir ko‘lami, individual xususiyatlariga ko‘ra realistik komediyadir;
- Qahramonlar oddiy xalq ichidan tanlab olingan, shunigdek voqealar mayda tafsilotlarigacha, to‘g‘ri, hech bir xaspo‘shlarsiz tasvirlangan;
- Plavt ijodi butun dunyo adabiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan va bu jarayon o‘zbek adabiyotiga ham tegishli, shu bois uning asarini boshqa adabiyot vakillari asarlari bilan qiyoslash talab etiladi.
- Plavt yaratgan xasis obrazi satirik kulgu asosiga qurilgan bo‘lib, ushbu qahramon hayotiyligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi;
- Molyer yaratgan xasis obrazida xasislik illati mutloq hirs sifatida berilgan. Gargapon obrazi xasislik illatini o‘zgacha rakurslarda tasvirlay olgan obraz sifatida ahamiyatga molik;
- Onore de Balzak inson hayotining butun jarayonlarini tasvirlashga ahd qilgan holda, o‘zining “Insoniyat komediyasi”ni yaratdi. Unda adib inson hayotining turli jahbalaarini aks ettirgan;
- Gobsek obrazi o‘zigacha yaratilgan obrazlardan falsafiy mohiyati bilan ajralib turadi.
- Xasis obrazlarini yolg‘izlikka mahkum inson fojeasi birlashtirib turadi.

III BOB. XASIS OBRAZINING FOLKLOR VA MUMTOZ ADABIYOTIDAGI KO`RINISHLARI.

O‘zbek adabiyotida xasis obrazining dastlabki namunalarini xalq og‘zaki ijodidagi janrlarida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, xalq maqollari, xalq ertaklari, xalq dostonlari, latifa kabilarda.

Maqol xalq hayotiy tajribalari xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuidir. Maqolning vujudga kelishida albatta, birorta ibratli voqeanning ahamiyati kattadir. Ana shunday hayot lavhasiga guvoh bo‘lgan dono odamlar ko‘rgan – kechirganlariga xulosa yasab, maqolona gapni o‘ylab topgan. Keyinchalik hayotiy vaziyatning takrorlanishi oqibatida bиринчи aytilgan fikr asta –sekin maqolga aylangan. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, xalq orasida maqolning yashashi uchun hayotiy asos bo‘lishi zarur. Bunday asosga ega bo‘lmagan maqolning umri qisqadir.

Xasislik, xasis insonlar haqida ham maqollar bejizga paydo bo‘lmagan. Odamlar o‘z hayotiy kuzatishlari davomida turli toifadagi insonlarga duch keladilar. DUCH kelish jarayonida esa ular bilan muloqotga kirishadilar. Ayni shu muloqot, kommunikatsiya jarayonida suhbatdoshlari haqida xulosa chiqaradilar. Agar inson qizg’anchiq, xasis bo‘lsa uning xarakteridan kelib chiqqan holda maqollar to‘qilgan. Masalan,

Xasis to‘ymas,

Xasisligini qo‘ymas.

Baxil ehsondan qochar,

Xasis mehmondan qochar.

Berardan ham bir so‘ra,

Bermasdan ham bir so‘ra.

Yemas yerga o‘t bitar,

Ichmas yerga suv bitar.

Tangrining molini Shayton qizg‘anar.

Patirdan qil chiqmas,

Xasisdan –pul.

Maqtasang, saxiyni maqta,

Toptasang, xasisni topta.¹⁵

Ushbu maqollarda xasislik bilan bir qatorda xasis ham qoralanadi. Xasislik illatidan saqlanishga da’vat etilar ekan, ushbu illatdan qutulmoq uchun inson o‘zida irodalilikni shakllantirishi lozimligi ta’kidlanadi.

Xalq og‘zaki ijodi janrlaridan xasis obrazining yorqin namunasini latifa janrida ham uchratamiz. Ushbu janrda yaratilagan xasislar xalq kulgu maydonida shakllangan. Xalq latifalari voqeanning favqulodda hal etilishi bilan diqqatga sazovordir. Latifa mazmunan epizodik xarakterga ega bo’lsa ham, unda katta ijtimoiy ma’no yotadi. Chunki janr asosida ziyraklik, hozirjavoblik va o‘tkir hajv yotadi. Qisqacha qilib aytganda, latifa xalqning aql –zakovatini, mehr va nafratini, kulgusi va pichingini zaminida nazokat yotuvchi soddalik bilan dialog shaklida ifodalovchi epizodik asardir. Shu sababli ham latifa qahramoni keng xalq ommasining har bir vakiliga xos barcha xislatlarni –soddalik, puxtalik, mehribonlik, qattiqqo‘llik, saxiylik, xasislik – o‘zida mujassam etgan bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, latifa qahramoni Afandi xalq obrazidir.

Keng xalq ommasiga xos turli –tuman xislatlarni faqat birgina o‘zida jam etganligidan bo’lsa kerak Nasriddin Afandi yoxud Afandi deyilganda allaqanday kulguga bog‘liq iliq mehr uyg‘otuvchi tip ko‘z oldimizga keladi. Agar yozma adabiyotda ijobiylilik va salbiylik, oqillik va nodonlik, go‘zallik va xudbinlik, saxiylik va xasislik kabi xislatlar ijobiylilik va salbiy obrazlar vositasida berilsa, latifalarda ana shu ikki xislat birgina tip Nasriddin Afandi obrazi zimmasiga tushadi.

¹⁵ O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi fanidan ma’ruzalar matni. Nukus, 2011

Latifalarning yagona qahramon faoliyati asosiga qurilganligi, tasodifiy uchrashuvdan boshlanib, kutilmagan javob bilan yakullanuvchi epizodik syujetga egaligi, ortiqcha tasviriylik hamda tavsifiylikning uchramasligi, kuchli yumoristik hamda hajviy kulgu qo‘zg‘atishi janrning xalq orasda ommalashib ketishiga sabab bo‘ldi. Nasriddin Afandi obrazida oljanoblik, donolik va so`zamolik, uddaburonlik va go`llik, soddalik va laqmalik kabi xislatlar sintezlashgan. Latifada tasvirlargan har bir voqeа-vaziyatda uning o`ziga xos alohida xislati namoyon bo`ladi. Lekin barcha holat va vaziyatlarda u mehnatkash, halol insonlarning g`amxo`r vakili, ularning manfaatlarini himoya qiluvchi tip sifatida ishtirok etadi.

“Nasriddin afandidek tipi bilan, ixcham va maroqli shakli bilan, eng muhimi turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzum hamda davrlarga xos voqelikni aks ettirishga qulayligi bilan latifa hamisha hozirjavob janr bo`lib qoladi.”¹⁶

Xasis obrazining o‘lmas namunalari yaratilgan xalq og‘zaki ijodidagi janrlardan yana biri shak–shubhasiz ertakdir.

Ertaklar folkloarning keng tarqalgan ommaviy janrlaridan biridir. Ertaklar xalq hayoti, ijtimoiy turmushi, ma’naviy dunyosi, dunyoqarashi bilan uzviy bog`langandir.

Ertak janri dunyo xalqlari folklorida so`z san’atining eng ommaviy, eng demokratik turi hisoblanadi. Ertaklarning paydo bo`lishi uzoq o`tmishga, sinfsiz jamiyatga borib taqaladi. Ertaklarda xalqning tilak va orzulari aks etadi. Ertak janrining asosiy xususiyatlaridan biri uning xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urf-odatlari bilanjuda yaqin bog`langanligi va insonlarga axloqiy hamda ma’naviy tarbiya berilishidir. Ertaklarda inson o`ziga dushman bo`lgan kuchlarga qarshi doim g`olib chiqadi. Ertaklarda ham inson va uning olami aks etarkan, aytish mumkinki, ular satiradan xoli bo`lmaydi.

Satirik ertaklarda jamiyatning illatlari, hukmron sinf va ularning zolimliklari ustidan achchiq zaharxanda kulgu beriladi.

Satirik ertaklarning mavzu doirasi podsho va xonlarning zolimligini, ahmoqligini,adolatsizligini, boylarning xasisligini va mehnat ahliga qarama-qarshi

¹⁶ O’zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi fanidan ma’ruzalar matni. Nukus, 2011

bo`lgan tekinxo`r o`g“rilarni, ko`knorilarni, folbinlarni, ahmoq mullalarni, ruhoniylarni va shularga o`xshash elementlarni fosh qilishdan iboratdir.

Xasis obrazi yoritilgan ertaklarga misol qilib “Xasis boy bilan Abdurahmon o`g`ri”ertagini olib ko`rish mumkin.

“Bir xasis boyning ming tillasi bo`ladi. Boy bu tillalarni bir bo`z xaltasiga solib, og`zini mahkam tugib, hech kimga ishonmay, bo`yniga osib yuradi. Boyning Matmusa ismli xizmatkori bo`ladi. Boy unga ko`p azob beradi. Abdurahmon o`g`ri Matmusaning qo`lida ustalik bilan ro`molini olib, boyning uyiga borib tillani olib qo`yadi. Keyinchalik o`g`ri boyga tillalarni qaytaradi. Biroq bir tillasi qoladi. Butun janjal mana shu tilla ustida boradi. Tillani olish uchun boy o`g`rining uyiga borib yotib oladi. O`g`ri «o`ladi». Boy ko`madi. O`g`ri tiriladi. Xullas, boy o`g`ridan bir tangasini undiradi -yu tinchiydi.”¹⁷

Ko`rishimiz mumkinki, bugungi yozma adabiyotda yetakchilik qilayotgan har qanday obrazning genezisi xalq og`zaki ijodiga borib taqaladi.

¹⁷ Qurbaniyazov M. O`zbek xalq og`zaki ijodi fanidan ma`ruzalar matni. Nukus, 2010

3.1. 20-yillar o‘zbek nasrida xasis obrazining tarixiy shakllanishi va taraqqiyoti masalasi

Yangi o‘zbek adabiyoti xarakter yaratish uslubi, usuli, mahorati nuqtayi nazaridan davrlashtirilmagan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo‘lgan renessans –fan , texnika kabi yangicha tushunchalar kolonial Turkistonga ham kirib kela boshladi. Ma’orif, madaniyat, san’at, adabiyot jabhasida sezilarli o‘zgarishlar ko‘zga tashlandi. Adabiyotda ko‘zga tashlangan, yangilik sifatida qaralgan o‘zgarishlardan biri sifatida obrazlar tizimining takomillashgani, yangidan yangi obrazlarning bo‘y ko‘rsatgani bilan belgilashimiz mumkin.

20-asrning 20-yillarida o‘zbek nasrida yaratilagan eng yorqin xasis obrazlaridan biri, shubhasiz, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asari qahramoni Solih maxdumdir.Maktabdor Solih maxdumning yumoristik obrazi adabiyotshunoslikda yozuvchining jiddiy yutug‘i, kashfiyoti deya e’tirof etsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki o‘zbek nasrida hali–hamon Solih maxdum singari xasis obrazi shakllantirilmagan edi. Abdula Qodiriyning romanda yengil hazil –mutoyiba, kulgu–umor, piching, kinoya –kesatiq, hajv mahorati Solih maxdum obrazi orqali namoyon bo’ladi.

Solih Maxdum “Mehrobdan chayon” asaridagi birmuncha murakkab obrazlardan. U ba’zi insonga xos ochko‘zlik, molparastlik, xasislik illatlari bilan “ziynatlangan”. Asarning “Maxdumning ba’zi xislatlari” qismida bunga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Asarda Maxdum obrazi o‘zigacha yaratilgan boshqa xasis obrazlari singari hajviy qiyofada berilgan bo’lsada, Qodiriyl undagi xasislik illatining kelib chiqish ildizariga nazar solib uni birqadar oqlaydi go‘yo.

“Yosh chog’ida otasi o‘lib, qattiqchilig‘da o‘sdi, uning ba’zi yarashmagan harakatlari balki o‘sha qattiqchiliqning ruhiga singib qolg‘on yomon ta’siridir...

Oyni etak bilan yashirib bo'lamaydir. Maxdumning xasislikka o'xshash holatlari albatta bor edi. Maxdum topub –tutmagan yillarda bu ishni yo'qliqdan qiladir, desak –da keying vaqtarda ham shu odatni tark etmagani uchun tabiatda bir muncha xasislik bor ekan, deymiz”¹⁸

Muallif tili bilan aytilgan ushbu ta'riflar Solih maxdum shaxsiga birqadar ehtiyyotkor yondashmog'imiz zarurligini bildiradi. Chunki Maxdumdag'i xasislik illati hayoti davomida ko'rgan qiyinchiliklarining “tamg'asi”dir. “O'rgagan ko'ngil o'rtansa qo'ymas”, -deydi dono xalqimiz. Maxdumdag'i o'rganish keyinchalik yaxshilangan hayoti davomida ham uni tark etmaganligi, o'ziga ham, atrofdagilarga ham biror nimani ravo ko'rmasligi uni xasis deyishimizga sabab bo'ladi. Muallif Solih maxdumning ta'rifini davom ettirar ekan, unga hajviy elementlar qo'shilib borishi shundan.

“Ko'ylak – ishtonning aksar yetti –sakkiz joyidan yamog'i bo'ladir. Yetti qishdan beri guppi –chopon yangilangani ma'lum emas, faqat qish elib ketgan sayin alak guppining yengi o'zgaribgina turadir va astari yangidan –yangi yamoqlar bilan boyiydir, shu guppi butun umrida bir marta va shunda ham maxdumdan beruxsat, ammo Nigor oyimning zo'ri bilan tog'oraga tushib cho'mildi. Bu kunda bo'lsa to'rt yil burung'i g'usli, yetti yillik tusi, turlik –turlik yamog'i bilan sakkizinchi qish maxdum pochchasiga sodiqona xizmat qilish uchun bo'g'joma ichida o'ziga kuch yig'ib yotadir. Mahalla kishilarini maxdumning bu choponiga “moltopar” deb ism berganlar, guppi kiyilib chiqilg'an kun maxdumga sezdirmay “moltopar savdodan qaytibdi... hali baquvvat, ish qilib yamoqqa charchamasang, yana o'n yilingmi, Mamarayim!” deb kulishadirlar.

Qisqasi, besh –olti qayta boshlatilib qo'nji bir qarichga kelgan aybaki maxsi, charmi ust –ustiga uyulib yerdan uch ellik chamasi ko'tarilgan ikki chorak vaznlik kafsh, yoshi mahalla kishilarinig ko'blariga ma'lum bo'limg'an, harchand ehtiyyot qilinsa ham necha joyidan popiltirig'I osilgan oqbo'z salla mahalla kishilarining ermaklaridandir. Bulardann boshqa hayit kunlari va to'ylardagina kiyiladigan banoras to'ni, sovuq qattiqroq bo'lg'anda ichidan kiyadirk'an adres guppisi ham

¹⁸ A.Qodiriy.Mehrobdan chayon. –T.:Sharq,2007.14-bet

bor. Mahalla kishilari banoras to ‘nni “zarurat” deb atagan bo ‘lsalar ham, adres guppiga hali hamon nom qo ‘yg`uncha ,yo`qlar, chunki buning dunyoga kelganiga faqat to ‘rt –besh yilgina bo ‘lga `ndir. ”¹⁹

Maxdum insonning tabiatidagi kamchilik va chirkin illatlarnigina emas, ichki murakkabliklar, ishonish qiyin bo‘lgan nafsoniy evrilishlarni ham ochib beradigan obrazdir. Maxdum nafsiga taslim bo‘lgan, xasisligi ortidan boshqa illatlarni orttirgan qahramon. Masalan, u maktabdorliqda halol raqobat bilan ish yuritmaydi. O‘z matabiga kelmaydigan boylarning bolalarini (ha, aynan boylarning bolalarini) o‘ziga og‘dirib olish uchun ming bir nayrangni qo‘llaydi.

“Maxdum mumkin qadar bolalarni o‘z matabiga jalg qilishg‘a tirishar, ayniqsa boy va bek bolalarini o‘z qo‘liga olish uchun har bir chorani ko‘rar edi. Masalan, boy va a’yondan birining o‘g‘li boshqa maktabda o‘qib yurgan bo‘lsa, uni bolalar vositasi bilan matabiga o‘z chaqirar, nima o‘qiganini, nimalar bilganini so‘rar, bola savog`idan yaxshi javob beralmasa, “sizda ayb yo`q, o`g`lim, ustozingiz biro z shundayroq odam... xo`b, xo`b; bizning maktablarga ham kelib yuring! Men o`zim sizni juda do`st tutaman-da !” der edi”²⁰

Ushbu ta’riflar Solih maxdum tabiatidagi munofiqlik, hayosizlik sifatlarini ko‘rsatib beradi. Asarda yorqin adabiy suratda chizilgan Solih maxdum obrazi achchiq kulgu ruhi bila sug‘orilgan. Solih maxdumga berilgan eng haqqoniy chizgi o‘z qizi tilidan “chizilgan”. Maxdumning qizi Ra’no otasidagi xasislik illatlariga ba’zan chidolmay, “ isyon qilib chiqadi”. Mana shunday isyonlardan biri otasiga bag‘ishlab bitgan hajviy she’ridir.

Yog’lar to’kilsa yerga yotib yalar taqsirim,

Bo’lsa bozorda pastlik sotib olar taqsirim.

Mening uchun bir zirak, Ra’nobonuga “jevak”

Desa oyim –“ne kerak?!” yumma talar taqsirim.

“Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazil emas

Jevak taqish farz emas!” –g‘avg’o solar taqsirim.

¹⁹ A.Qodiriy.Mehrobdan chayon.T.:Sharq,2007. 15-16 bet.

²⁰ O’sha asar.

“Ushbu hajviy she’r, avvalo, nim tabassumga sabab bo‘lsa, ikkinchidan, butun roman voqealari ichida ochilib boradigan Solih maxdum xarakterining o‘ziga xos qirrasini ifoda etadi”²¹

Bunday she’rning bitilishiga sabab maxdumning o‘z oilasiga ham o‘ta xasisligi hamda ta’magirligi edi. Ra’no onasi ezilgan damlarida achchiqlanib, “Hamma ayb o’zingizda:otamdan ko’ra tuzukroq erni topib ketsangiz bunchalik qiynalib yurmasdik!”, -deganida ham ana shu kemtik holat ifodalanadi.

Solih maxdum murakkab shaxs, uni yaxshi desa xatodir,yomon desa ham to‘g’ri bo‘lmaydi.U o‘zidagi xasislik, ziqlilik sifatlarini yashirishga, parda ortiga berkitishga urinmaydi. Bu esa unga nisbatan qo‘llanuvchi hajv miqdorini oshirib yuboradi. Undagi xasislik davr taqazosi bo‘lsada, atrofdagilarning ba’zan kulgusiga, ba’zan nafratiga sazovor bo‘ladi. Ayniqsa uning Anvardan kutuvchi ta’malari xarakteridagi xasislikni bo‘rttirib ko‘rsatadi.

“Shu xursandlik barobarida birinchi oyning yetti tillosi yaxlit holda maxdumning qo‘liga tegishi go‘yo to‘y ustiga to‘y edi. Domlaning yetti tilloni olg`andag`i holini tasvir qilish, albatta qiyindir; ko‘zları g`ilaylashgan, astida qiziq o‘zgarish ko`rilib, og`zining tanopi uzoq sayohatni orzu qilg`an –“habba ... hosiling durust, Anvar bolam , lekin pulga ehtiyyot bo‘l, bo‘tam!”²²

Solih maxdum obrazidagi xasislik xarakteri falsafiy mohiyatga ega. Zero, u boylikka o‘chlikdan tashqari qiladigan ishlarini aniq rejalashtirib, fikrlab bajaradi. Solih maxdum o‘ylamay, anglamay hech bir ishni qilmaydi. U murakkab obraz. Asarda o‘z ovoziga egaligi ham shundandir balki.

Solih maxdum obrazi hamda unda shakllantirilgan xarakter masalasi “yangicha ijtimoiy –iqtisodiy konsepsiyalar ilgari surilayotgan sharoitda bahs obyektiga aylandi”.²³

Adabiyotshunos Azim Rahimov “ O’zbekiston adabiyoti va san’ati” haftaligi 3-avgust sonida “ Solih mahdumda nima gunoh” nomli maqolasida Solih maxdum

²¹ Каримов. Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. Т.: Академнашр.2014

²² A.Qodiri.Mehrobdan chayon.T.:Sharq,2007.

²³ Каримов. Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. Т.: Академнашр.2014

shaxsidagi xasislik illatlariga e'tibor bermay, undan ko'ra qahramondan fazilat izlaydi. Adabiyotshunos maqolasida qahramon shaxsini avvalgilarga o'xshamagan, nisbatan yangilangan, samimiyatga yaqin talqinini berishni istaydi. U Solih maxdum shaxsini tahlil qilishda hozirgi kunning ijtimoiy –iqtisodiy konsepsiyasini asos qilib oladi. Ungacha bo'lган barcha tahlillarda Solih mahdum xasis, yaramas, qizg'anchiq odam sifatida ta'riflangan bo'lsa , Azim Rahimov unga ijobiy bo'yoq beradi. Azim Rahimov Solih mahdumni yetimparvar deya e'tirof etadi. :

“Maxdum o'zining yetimparvarligi bilan kishinig mehrini qozonadi. U notanish bechora ayolning iltimosig binoan sira ikkilanmasdan unig to`rt yashar o'g'lini panohiga olib, o'z farzandidek boqib tarbiyalaydi, o'qitib, ilm –ma'rifatli odam qiladi. Mahdum ochiq ko'ngilligi tufayli odamlarga ortiqcha ishonar, do'st bilan dushmanning farqiga bormas, necha yillik adovatlarini ikki og'iz shirin so'z yoki besh pullik manfaat evaziga unutib yuborardi. O'zining shu odatlari tufayli pand yegan paytlari ham bo'lган.Ko'riniб turibdiki, Mahdum o'zidagi barcha insoniy fazilatlar hamda qusurlari bilan barkamol xarakter darajasiga ko'tarilgan bo'lib, undagi bu xususiyatlar borliq bilan murakkab sababiy aloqadorlik ko'rinishidir. Shuning uchun ham mazkur obrazni bu qadar yakdillik bilan salbiy deb qoralash adolatdan emas.”²⁴

Uning maqolasidagi ko'plab fikrlar adabiyotshunos Murtazo Qarshiboyga ma'qul kelmaydi.Hamda “Solih mahdum farishtami?” nomi ostida o 'z maqolasini chiqaradi.U Solih mahdum obrazi haqida gapirar ekan, Azim Rahimov fikrlarining barchasiga qo'shilolmasligini ta'kidlaydi.Murtazo Qarshiboy Solih maxdum obrazidagi illatlarni oqlash noo'rin ekanligini ta'kidlab, uni iymonsizlikda ayblaydi. “Abdulla Qodiriy ning o'zi qo'llashda andisha qilgan ayrim ta'birlarni Solih maxdumga nisbatan shafqatsizlarcha ishlatib yuboradi.²⁵ “Agar Solih maxdum obrazining badiiy mantig'idan kelib chiqib fikr yuritsak, maxdumning sal iymonsizroq, ikkiyuzlamachiroq va munofiqroq ekanini ko'ramiz”²⁶

²⁴ Rahimov A."Solih maxdumda nima gunoh". O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 1990yil 3-avgust

²⁵ Каримов. Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. Т.: Академнашр.2014

²⁶ Ўша асар.

Murtazo Qarshiboy Solih maxdumni hatto Abdurahmon domladan ham ko'ra xavfli shaxs deya e'tirof etadi.

Solih maxdum obrazi haqida borgan bahslardagi fikrlar, "ilgari o'ta xasis, ziqna tip o'laroq talqin etilgan Solih maxdumning bir yo'la oppoq –serfazilat ziyoli to'nini kiyishi ham yoki yangi sharoitda iymonsiz, munofiq singari sifatlar bilan tavsifanishi ham ayni obrazning butun mohiyatini, estetik jozibasini ochib berolmaydi."²⁷

Xulosa qilib aytganda, "Mehrobdan chayon" romanidagi eng yorqin, tabiiy, serqirra va realistik obraz bo'lgani uchun ham Solih maxdum obrazi o'lmasdir.

²⁷ Ўша асар

3.2. 60-80-yillar nasrida xasis obrazining o‘ziga xosligi.

Adabiyot maydonidagi har bir iste’dodning boshqalarga o‘xshamagan o‘z yo‘li,o‘z ovoziga ega bo‘ladi. Tasodifiy odamlarga adabiyotda o‘rin bo‘lmaydi. Adabiyot, xususan, badiiy ijod bu –mahkum odamlarning ishi.

Sadriddin Ayniy ijodining gultoji hisoblanmish “Sudxo‘rning o‘limi” qissasi xasis obrazining tipik namunasi sanaladi. Asar Buxoro madrasalaridan birida yashovchi talaba tilidan so‘zlab beriladi.U turar joy muammosiga uchrab qolganda, birov unga Qori Ishkambani tavsiya qiladi. Ayni shu jarayon ya’ni hujra qidirish jarayonida Qori Ishkambanining ta’rif –u tavsifi boshlanadi.

Talabani Qori Ishkambanining o‘zidan ham, ismi(laqabi) e’tiborini tortadi. Ishkamba deb hayvonlarning oshqozoniga aytlishi uni ikkilantirib qo‘yadi. Asar boshidanoq o‘quvchini g’ayritabiiy shaxs bilan tanishtirishga tayyorgarlik ko‘radi. Qori Ishkambani xasis desangiz “asakangiz ketmaydi”. Xasislik uning kundalik bajaradigan yumushlari singari tabiiy holdek tuyuladi go‘yo. Uning tana tuzilishi tasviri ham fe’li –ro‘yiga mos holda tasvirlangan:

U o‘rta bo‘yli, qorni katta, semiz, bo‘yni kalta va yo‘g’on, boshi ham katta va sergo‘sht odam edi, bo‘ynining yo‘g’onligi va yuzining sergo‘shtligi shu darajada ediki, uning gavdasi suv to‘ldirilgan meshga o‘xshardi...

Qori Ishkamba asarda shunday qiyofada tasvirlanganki, undan boshqa xasis bo‘lishi mumkin emas deb o‘ylab qoladi o‘quvchi. U bajaradigan ishlar, qiladigan xasisliklari insonda kulgudan tashqari, anglashimsiz tuyg‘uarni vujudga keltiradi. Uning sartarosh bilan bo‘lgan suhbati xasisligining dastlabki ko‘rinishi xolos:

“Men xoh haftada bir marta soch oldiray, xoh ikki oyda bir, buning sizga hech bir aloqasi yo‘q. Mening sochim xoh o‘sib ketgan bo‘lsin, xoh yo‘q, siz bir marta ustara urasiz, uzun soch uchun ikki marta ustara ishlatmaysizki, mehnatingiz ortiq sarf bo‘lsa. Agar men soch oldirish haqini boshqalardan ko‘ra kamroq bersam, bu haqda shikoyat qilishga haqqingiz yo‘q, chunki o‘zingiz ko‘rib turibsizki, boshimning yarmisi sochsizdir va siz u yerga hech bir ustara urmaysiz”

Qori Ishkamba qaysidir jihatlari bilan jahon adabiyoti durdonasi “Gobsek”ni esga tushiradi. Jumladan, uning sudxo‘rligi, bir tiyinni ham birov uchun sarflamasligi, o‘ziga xos falsafasi mavjudligi, xarakteridagi illatlarni o‘zi fazilat sifatida ko‘rishi kabilar. Biroq uning xasisligi oldida Gobsekning xasisligi “soyada qolib ketadi” go‘yo.

“Lampani yondirish uchun gugurt so‘ramay, nega lampa so‘radingiz?, -dedi boyvachcha Qoriga.

Hisob yuzasidan, -dedi Qori Ishkamba, -har kecha uyimdan bir dona gugurtdan ortiq sarf bo‘lmasligi kerak, xoh o‘choq bo‘lsin, xoh chiroq, bir –birovlaridan yondirishlari lozim. Shu holda qo‘limdagi besh –o‘n tanga pulni odamlar “foydaxo‘rlikdan topgan” deb o‘ylaydilar. Holbuki, men har bir narsamni tejashdan, xarajatda isrof qilmaslikdn topganman”.

Xasislik illat degan edik ishimiz boshida, bu gapning naqadar to‘g‘ri ekanligin “Sudxo‘rning o‘limi” yana bir bor tasdiqlaydi. Xasis odam pulining o‘z –o‘zidan havoga uchishi ziqlana odam uchun fojiaviy yakun topishini adib mahorat bilan tasvirlagan:

Qori Ishkambaning o‘n ming tangasi “Kavkazskiy merkuriy” direktorining bir “pufi” bilan ko‘kka sovurilib ketgandan keyin, u ko‘chalarda “voy –voy”lab yurar, duch kelgan odamni yo‘ldan odamni to‘xtatib, yuzinchchi marta bo‘lsa ham, bu hodisani unga hikoya qilar va saroybon, qozikalon, qushbegi va direktorni qarg‘ar, eng oxirida o‘zini “nega u saroybonga ishondim, nega uni o‘zimga sirdosh qildim” deb so‘kardi. “Odam degan pul to‘g‘risida yotlargina emas, o‘zimga ham ishonmasligim kerak”, der edi va “bundan buyon o‘zimga ham ishonmayman”, deb o‘ziga o‘zi so‘z berardi.

Qori Ishkamba obrazi psixologik tasvirning ajoyib namunasini yarata olgan. Boylik, mol –dunyo uning butun ong –u shuurini egallab olgan, uning qarashlari, atrofdagilarga munosabati kitobxonda kulgidan ko‘ra,g‘azabini,ko‘pchilik hollarda esa chin –dildan rahm –shafqat tuyg‘usini uyg‘otadi. Qori Ishkambaning sevimliligi, o‘qishlilagini ta’minlovchi elementlardan biri xarakteridagi ayni shu murakkabliklari desak xato bo‘lmaydi.

Abdurauf Fitrat yozganidek, “ adabiyot –fikr, tuyg‘ularimizdagи to‘lqunlarnи so‘zлar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarga ham xuddi shu to‘lqinlarnи yaratmoqdir”²⁸

Adabiyot olamida mana shunday to‘lqinlarnи yarata olgan yozuvchilardan biri, hech shubhasiz, Erkin Vohidov sanaladi.

Erkin Vohidov serqirra ijodkor. U yaratgan mavzular abadiyatga daxldorligi bilan e’tiborga molikdir. Zero, u hayotdagi voqealarnи tarozining ikki pallasiga solib, yaxshi va yomon tomonlarini ko‘rsatgan holda tasvirlaydi. Erkin Vohidov ijodi, shunisi bilan ahamiyatlici, adib hayotda uchrab turuvchi insonga xos bo‘lgan illatlarnи kinoyaviy kulguga o‘rab taqdim etadi. Mana shunday asarlaridan eng mashhuri, shaksiz, “Oltin devor” komediyasidir.

“Oltin devor” garchi syujeti va kompozitsiyasi jo‘n ko‘rinsada, qahramonlari sodda, kamtar, kamsuqum, sipo, odamoxun hamda xalqonaligi bilan o‘quvchi mehrini qozona oladi. Ayniqsa, asarning tub mohiyatiga singib ketgan xalqona humor, obrazlardagi jozibadorlik, muvofiqlik muvaffaqiyatning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Asarda halollik hamda xasislik o‘rtasida murosasiz jang ketadi. Insondagi azaliy ojizlik –nafs balosiga bosh egish, ko‘ngil berish hech qachon yaxshilik bilan tugamasligi, nafsga mag‘lub kimsalar nafaqat o‘z halovatini, shuningdek, o‘zi uchun eng qadrli va yaqin insonlar halovatini o‘g’irlashi satirik kulgu asnosida berilgan.

Asar qahramonlari Abdusalom, Mo‘min chol farzandlarining baxti uchun quda bo‘lishga ahd qiladilar. Dastlab qizning otasi bo‘lgani sababli ham Abdusamat yamoqchi Mo‘min cholga o‘z talablarini qo‘yadi. Ular kelishib olgach, hovlidagi devorni buzishga qasd qiladilar. Devorni buzish chog‘ida chollar bir xumchada tilla topib oladilar. Voqealar rivoji ayni shu nuqtadan boshlanadi.

²⁸ Фитрат. Адабиёт қоидалари. Т.: Чўлпон

Chollar qalbida nafs balosi, oltin vasvasi barq uradi. Abdurahmon chol Mo‘min choldan, Mo‘min chol Abdurahmon choldan tillalarni qizg‘ana boshlaydi. Oltin vasvasiga uchragan chollar oralaridagi qirq yillik do‘stlikka ham qaramay, shaytonning gapiga kirib bir –birlari bilan qir –pichoq bo‘la boshlaydilar. Oralarida “shayton” vazifasini yana bir qo‘shni, boylik desa o‘zini tomdan tashlaydigan Saidmalik bajaradi.

Abdusamad Saidmalikning va’dalariga ishonib, jonajon do‘stiga xiyonat qiladi. Qizini Saidmalikning xizmatchisi Qilichbekka berishni ko‘zlaydi. Adib bu bilan nafs balosi qalbini egallagan shaxs insoniy tuyg‘ularni unutishini, hatto o‘z farzandining baxtini o‘ylab ham o‘tirmasligini kulguga o‘rab tasvirlagan.

Mo‘min cholning ahvoli Abdurahmonning ahvolidan besh karra og‘irroq. Abdurahmon chol boylik ilinjida Saidmalikning va’dalariga uchgn bo‘lsada, o‘zini birmuncha yaxshi tutadi. Mo‘min chol esa tillalar topilgan kundan boshlab, es – hushini yo‘qotadi. Uning ahvoli o‘quvchida yengil kulgu uyg‘otadi. Mo‘min chol oltinlar oldida taslim bo‘ladi. Uning shuurida oltin vasvasasi barq ura boshlaydi.

E xudo! Men senga nima yomonlik qildim?

Men sendan olti n so’rganmidim?

Ol oltinlaringni. Ber, mening xotirjamligimni .

Yuragim ezilib ado bo’ldi –ku.

Asar so`nggigacha boylik degan narsa insonlarni ziqna, telba, xasis holatiga solib qo‘yishi mumkinligi asar tagmatnidan sezilib turadi. Bejizga xasislik illat sifatida qaralmaydi. Chunki bu illat insonni qachondir rasvoyi jahon qiladi. Tinchgina yashayotgan, bir –biriga eng yaqin do‘stlar oltin topishi bilan hattoki farzandlari taqdiri ko‘zga ko‘rinmay qolishi xasislik kategoriyasining tipik namunasidir.

Adib ko‘p boylik insonning xarakter mdunyosiida xasislik keltirib chiqarishi, buning oqibatida oradagi mehr –oqibat, ishonch, odamiylik, ezgulik tushunchalari o‘rnini munofiqlik, yolg‘on, mehrsizlik egallashi mumkinligini ta’kidlamoqchi bo‘ladi.

Erkin Vohidov “Oltin devor” komediyasini yaratishda Rim adibi Plavtining “Xumcha” dramasidan ta’sirlangan. Asar syujeti bir –biriga juda o‘xshash. Ikkala komediyada ham bir g‘oya –xasislik inson tabiatidagi illat ekanligi yetakchilik qiladi. Hatto obrazlar tizimi ham bir –biriga juda yaqin. Ikkala asarda ham kambag‘al tilla topishi bilan botinidagi nafs bosh ko‘taradi. Shu palladan boshlab, ular o‘z farzandlarigada xasislik qila boshlaydilar. Ulardagi bu holat satirik kulgu bilan berilgan. Endi ular nafs asiriga aylanadilar. Komediyalarga singdirilgan asosiy ma’no xasislik illati insonga hech qachon baxt olib kelmasligidir.

Bu kuzatishlardan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- O‘zbek adabiyotidagi janrlar masalasida folkloarning ahamiyati katta;
- Abdulla Qodiriy o‘zbek nasrida o‘z uslubiga, ovoziga ega ijodkorlardan sanaladi;
- Adibning “Mehrobdan chayon” romani inson botinidagi illatlarni xarakterli tarzda tasvirlab bera olganligi bilan ajralib turadi;
- Solih maxdum xasisligi bilan o‘zbek adabiyotida yangicha murakkab xarakter tizimini vujudga keltirgani bilan e’tiborga molikdir;
- Sadriddin Ayniy xasis obrazining o‘ziga xos murakkab jihatlarini yoritib bera olgan qahramon yaratgan;
- Qori Ishkamba nafaqat xasis, balki falsafiy shaxs; undagi murakkablik jahon adabiyoti namunasi hisoblanmish “Gobsek”ni esga soladi;
- Erkin Vohidov ijodida Plavt ta’siri yaqqol sezilib turadi;
- Yozuvchining asarida yetakchilik qilayotgan g‘oyaviy ma’noda, qahramon olamining qirralarini, xarakteridagi illatlar, syujet tizimi, voqealar rivoji, obrazlar dunyosi Plavt uslubini eslatadi;
- Erkin Vohidov “Oltin devor” komediyasida hayotda yuz berishi mumkin bo‘lgan insoniylikka zid illat –xasislik insoniyat olamidagi qora dog‘ degan asosiy g‘oyani ilgari suradi;
- “Oltin devor” komediyasidagi bosh g‘oya Plavtning “Xumcha” asaridagi g‘oya bilan bir xil;

- Xasis obrazida yaratilgan asarlar nafaqat g‘oyaviy jihatdan balki syujet liniyalarini shakllantirish ham Plavtdan ta’sirlanganlikni bildiradi.

XULOSA

Ushbu ishimizning maqsadi badiiy adabiyotda xasis obrazining kelib –chiqish omillari, adabiyotda tutgan o‘rnini o‘rganishdan iborat edi. Olib borilgan tadqiqot davomida shunga guvoh bo‘ldikki, xasis obrazi juda ko‘p evrilishlarni boshidan kechirgan va bu jarayonga Plavt, Molyer, Onore de Balzak; o‘zbek adabiyotidan Abdulla Qodiriy, Muqimiy, Sadriddin Ayniy, Erkin Vohidov ijodiyoti ham qaysidir ma’noda o‘tkazgan.

Bitiruv malakaviy ishimiz boshida oldimizga qo‘yilgan vazifalarni quyidagicha bajardik:

1. Xasis obrazi adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo‘lgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa, ushbu obrazning shakllanishida insonlarning genetikasi, turmush tarzi, muayyan tarixiy sharoitda turli xalqlar orasidagi o‘zaro iqtisodiy jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi.
2. Xasis obrazi rivojida adabiy aloqa va adabiy ta’sir tufayli sezilarli sifat o‘zgarishlar, keskin siljishlar kuzatish mumkin. Masalan, Plavt yaratgan xasis obrazi misolida, qolgan xasis obrazlarining shakllanishini kuzatishimiz mumkin.
3. Xasis obrazining asosiy o‘ziga xosligi shundaki, unda inson tabiatida uchraydigan illatlar hajv orqali tasvirlanadi.
4. XX asrning 20-yillardan e’tiboran o‘zbek nasrida xasis obrazining tipik namoyondalari yaratildi.
5. Plavt, Molyer, Onore de Balzak asarlarida xasislik illatining realistik tasvir asosida berilganini ko‘rishimiz mumkin. Ularning ijodi o‘zbek nasrida Muqimiy, Abdulla Qodiriy, Erkin Vohidovlarning ijodiga ta’sir o‘tkazgan.
6. Yangilanayotgan o‘zbek nasrida yaratilayotgan xasis obraziga zimdan ta’sir o‘tkazayotgan jahon adabiyoti vakillaridan biri Rim yozuvchisi Plavt

hisoblanadi. Plavt asaridagi xasis obrazida inson tabiatidagi illatlar hajv asosida ochib berilgan. Plavt ijodida yunon adabiyoti vakillarining ta'siri sezilib turadi.

7. Milliy adabiyotimizda aksariyat nasriy asarlarda xasis obrazi asar syujetida kutilmagan burilish yasay olgan.
8. Abdulla Qodiriyning “Mehrob chayon” romani qahramoni Solih maxdum xasis obrazining murakkab tasvirini yarata olgan. Ushbu romanda Abdulla Qodiriy xasislik xarakterini ifodalashda o‘ziga xos to‘q bo‘yoqlardan foydalangan.
9. Erkin Vohidovning “Oltin devor” komediyasida yozuvchi xasis obrazini chizishda Plavt qahramoni Evkliondan ta’sirlangan, har ikki qahramonga ham xasislik illati, atrofdagilardan boyligini qizg‘anish illati singdirib yuborilgan.
10. Plavt ijodining o‘zbek adabiyotiga ta’sirini Erkin Vohidov “Oltin devor” komediyasi asosida ko‘rib chiqqanimizda : Erkin Vohidov komediyasida xasislikning inson hayotida ro‘y bergen hodisalar asnosida shakllanishi ham mumkinligi singdirib yuborilganini yuborilgani bilan Plavt an’analariga tayanganiga guvoh bo‘dik.
11. Adib komediyasida inson xarakter dunyosini ochib berishda voqealar, to‘qnashuvlar, g‘ayritabiiy voqealar tasviri hajv orqali amalga oshirilgan.
12. Xasis obrazi badiiy adabiyotda o‘ziga xos o‘rniga ega obraz ekanligi bilan ahamiyatga molik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat,2008
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. –T.: O'zbekiston, 1994
3. Karimov.I.A Adabiyotga e'tibor –ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent, 2009

Ilmiy –nazariy adabiyotlar:

- 4.Абдусаматов Ҳ. Илм –менинг қуёшим. –Т.: Ўзбекистон,2006
- 5.Бобоев Т.Адабиётшунослик асослари. –Т.: Ўзбекистон,2002.
- 7.Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. . –Т.: Faafur Fулом,2015
- 8.Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. –Т.: Фан,2006
- 8.Йўлдошев К. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди,2006
- 9.Ёлдош Қ ва Ёлдош М. Бадиий таҳлил асослари. –Т.: Камалақ,2016
- 10.Каримов.Б.Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур.-Т.: Академнашр,2014
- 11.Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т.: Ўзбекистон, 2008
12. Каримов Ҳ. Ҳозирги ўзбек насирида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепсияси. – Т.:Зарқалам,1994
- 12.Каримов К.Бугунги насрнинг хусусиятлари ва тамойиллари. Шарқ юлдози.2010-йил.3-сон
- 13.Қосимов Б ва бошқалар.Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти.- Т.:Маънавият, 2004
- 14.Қўшжонов М. Абдулла Қаххор маҳорати.–Т.: Faafur Fулом,1988
- 13.Мирвалиев С. Абдулла Қодирий. –Т.:Фан, 2004
14. Мирзаев С. Ҳаёт ва адабиёт. –Т.: Шарқ,2001
- 15.Норматов У. Ижодкорнинг даҳлсиз дунёси. –Т.: Мумтоз сўз,2008

- 15.Норматов У.Бугунги насримиз тамойиллари. Жаҳон адабиёти,1997-й.3-сон
16. Норматов У. Қодирий мўжизаси. –Т.: Ўзбекистон, 2010
- 17.Норматов У. Ижод сехри. –Т.: Шарқ, 2007
- 18.Расулов А. Танқид талқин, баҳолаш. –Т.:Фан, 2006
- 19.Расулов А. Бадиийлик –безавол янгилик. –Т.: Шарқ,2007
- 20.Султон И. Адабиёт назарияси. –Т.: Ўқитувчи, 2004
21. Фитрат. Адабиёт қоидалари.Т.:Чўлпон
- 22.Умурев Ҳ. Адабиёт қоидалари. –Т.: Ўзбекистон, 2002
- 23.Худойбердиев Э.Адабиётшуносликка кириш. –Т.: Ўзбекистон, 2003
- 24.Шарафиддинов О. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. . –Т.: Маънавият, 2010
- 24.Abdullayev H. So‘z sehri. Maqolalar to‘plami. –Т.: TDPU, 2005
25. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. –Т.: Musiqa, 2006
26. To‘xliyev B. Adabiyot. –Т.: O‘qituvchi, 2004
- 27.Sulton I. Adabiyot nazariyasi. –Т.: O‘qituvchi, 2005
28. Umirova A. Qalbni adabiyot qutqaradi. Ma’rifat gazetasi, 2008
